

**N.NURMATOVA**

**MO'G'ULLAR ISTILOSI VA  
ZULMIGA QARSHI KURASH.  
JALOLIDDIN MANGUBERDI –  
VATAN HIMOYACHISI**



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK -TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI**

**MO`G`ULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA  
QARSHI KURASH. JALOLIDDIN  
MANGUBERDI –VATAN HIMOIYACHISI**

**(bakalavr ta`limi darcha yo`nalishlari uchun «O`zbekiston  
tarixi» fanini o`qitishga doir uslubiy qo`llanma)**

**BUXORO - 2018**

**NURMATOVA N.U.** «O'zbekiston tarixi» fanidan «**Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi–Vatan himoyachisi**» modulini o`qitish bo`yicha uslubiy qo`llanma. – Buxoro.: BMTI, 2018, bet.

**Taqrizchilar:**

**Qurbonova Manzila Boqiyevna**

BuxDU dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**Safarov Tolib Tojiyevich**

BuxMTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida  
dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Uslubiy qo`llanmada «O'zbekiston tarixi» fanidan 3-modulni o`qitish bo`yicha ta'lim texnologiyalari, ularni qo`llash bo`yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu uslubiy tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta'limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda tayyorlangan.

Uslubiy qo`llanma oliy ta'lim muassasalari o`qituvchilari va talabalari uchun mo`ljallangan.

Uslubiy qo`llanma Bux MTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining ( 2018 yil , \_\_\_\_ июнь) yig`ilishida tasdiqlangan.

Uslubiy qo`llanma Buxoro muhandisdlik - texnologiya instituti Uslubiy kengashining 14.06. 2018 yil №6– sonli yig`ilishi bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etilgan.

## KIRISH

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, o‘z kuchi va salohiyatiga tayangan, o‘z sarhadlari, xalqimizning tinch va osuda hayotini himoyalashga qodir bo‘lgan, izchil va barqaror rivojlanib borayotgan zamonaviy mustaqil davlatga aylandi.

Bugun jamiyatimizda qanday yutuq va marralarga erishgan bo‘lsak, ularning zamirida biz tanlagan va butun dunyo e’tirof etgan, “O‘zbek modeli” deb nom olgan taraqqiyot yo‘li turibdi. Ana shu yo‘lning ajralmas qismi bo‘lgan, yoshlarimizning ongu tafakkurini, hayotga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirgan Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi ta’lim-tarbiya sohasi rivoji, har tomonlama etuk avlodni tarbiyalash, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yoshlar” degan shior hayotimizda tobora o‘zining yaqqol o‘z ifodasini topmoqda.

XXI asr O‘zbekistonda madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy innovatsiyalar asri sifatida boshlandi va ana shunday sharoitda barkamol shaxs, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy zaruratga aylandi. Bu zarurat Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida belgilangan “ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish” masalasiga e’tibor qaratishni talab etdi.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish ta’lim-tarbiya birligiga asoslanib, ushbu fanlar o‘sib kelayotgan yosh avlodda siyosiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy fazilatlarni, yuksak ong va madaniyatni shakllantiradi. Demak, yosh avlod, bo‘lajak mutaxassislarning, umuman, millatning qanday siyosiy, g‘oyaviy, axloqiy, tamoyillar asosida yashashi va mehnat qilishi bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi samaradorligiga bevosita bog‘liq.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2015 yil 23 yanvardagi qo‘shma majlisida hozirgi vaqtda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarga munosabat bildirib, **“... keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o‘sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo‘ymaydi”**,<sup>1</sup> deb ta’kidladi.

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, mehr-oqibat muhitini asrash, mustaqillikning qadriga etish, Vatan taraqqiyoti uchun daxldorlik tuyg‘usini anglash, har qanday xavf-xatar va tahdidlarning oldini olishda O‘zbekiston tarixi fanining o‘qitilishini puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta’sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o‘zi taqozo etmoqda. SHunday ekan, bu jarayon o‘ta aniq maqsad va vazifalarni belgilash asosida amalga oshirilmog‘i zarur.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2015 yil 24 yanvar.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston tarixi sohasidagi eng so‘nggi yutuqlar hamda ilmiy yangiliklarga tayangan holda, mavjud holatni ilmiy-nazariy o‘rganish, mazmunan boyitish, takomillashtirish hamda islohotlar talablariga to‘la javob beradigan darajaga keltirish tamoyillariga asoslanish zarur. Tizimning muvaffaqiyati fanlarning o‘qitilish sifati, fanlar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya, “uzluksiz tarbiya ob’ekti va sub’ekti” bo‘lgan talabalarning kamoloti, ongu tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishiga bog‘liq.

SHu nuqtai nazardan, bugungi kunda yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g‘ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual-ma’naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan yuksak malakali mutaxassislar etib tarbiyalash O‘zbekiston tarixi fani oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch” asarida, ilgari surilgan konseptual fikr-g‘oyalar, ilm-fan sohasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar O‘zbekiston tarixi fani mazmunini yanada takomillashtirishni talab etadi.

2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti”, 2014 yil 15-16 may kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyalarda yurtimizda ta’lim-tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O‘zbekiston tarixi) fanlar sohasida erishilgan yutuqlar yana bir bor e’tirof etildi va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarning konseptual yo‘nalishlari belgilab berildi.

Ma’naviy-ma’rifiy va ta’lim-tarbiya sohasidagi o‘zgarishlar, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadigan, ma’naviy dunyosini boyitadigan, ularning ongida ma’naviy bo‘shliq yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaydigan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O‘zbekiston tarixi) fanlarini mazmunan takomillashtirish hamda ta’lim samaradorligini yanada oshirishni talab etadi.

O‘tgan davr mobaynida oliy ta’lim tizimida gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O‘zbekiston tarixi) fanlarning me’yoriy hujjatlari, o‘quv-uslubiy majmuasini takomillashtirish va ularni o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

Bu ishlar kelgusida yana izchil davom ettiriladi. Fanlarni o‘qitishda uzviylik va izchillikni ta’minlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish, ilm-fan sohasidagi yangiliklarni ularda aks ettirish, bugungi va istiqboldagi vazifalarni yoritish, mustaqil ta’lim, o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatlari hisobga olinadi.

O'zbekiston tarixini o'qitish borasida milliy va xorijiy tajribalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, fanlarning namunaviy o'quv dasturlarini takomillashtirish va ular asosida ma'ruza matnlari, yangi avlod o'quv adabiyotlari, elektron adabiyotlarni yaratish va ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tatbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Ma'lumki mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekiston tarixi" fanini o'qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri xisoblanadi.

Avvalo fandagi yangilik nima? Fandagi innovatsiya nima? degan savollarga javob berish lozim. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so'zlari o'rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo'llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

"O'zbekiston tarixi" fanini o'qitishda bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quyidagi innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari qo'llanilmoqda.

#### **Interaktiv o'qitish texnologiyalari.**

- 1) Ikki kishilik.      2) Aralash uchlik.      3) Kichik guruhlarda ishlash.
- 4) Akvarium.      5) Aqliy hujum.      6) Yechimlar daraxti.
- 7) Ishbilarmonlik o'yinlari va hokazolar.

#### ***"Insert usuli"***

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

#### **Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot.

(-) - men bilgan narsaga zid.

(?) - meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta 1972 yil, YuNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferentsiyasida so'z yuritilgan edi. «Modulli o'qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog'liq bo'lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro

chambarchas bog`liq elementlardan iborat bo`lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o`qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modulli o`qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik yondashuvi asosida o`qitish mazmunini maqbullash va tizimlash dasturlarni o`zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o`qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o`rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o`qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbiy motivatsiya (qiziqtirish) asosida, o`qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o`qitish imkoniyatlarini to`la ro`yobga chiqarish.

Bugun O`zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo`lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi.

Modulli o`qitishga o`tishda quyidagi maqsadlar ko`zlanadi:

- o`qitishning (o`quv fanlar orasida va o`quv fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o`qitishni individuallashtirish;
- o`quv materialini mustaqil o`zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o`qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o`zlashtirishga erishish.

Modulli o`qitishda talabalarni o`z qobiliyatiga ko`ra bilim olishi uchun to`la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

Modulli o`qitishga o`tishda quyidagilarni amalga oshirish ko`zda tutiladi: ishchi o`qquv rejani chuqur tahlili asosida, o`zaro chambarchas bog`liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya'ni butun o`quv rejasi alohida makromodullar to`plami sifatida qaraladi. Modul o`z ichiga 2-3 ma'ruza va shu ma'ruzalar bilan bog`liq amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin. Har qaysi modul bo`yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- O`quvchilar bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlar;
- mustaqil ishlar uchun topshiriqlar;
- o`quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- o`quv-ilmiy adabiyotlar ro`yxati;
- ishchi o`quv dastur.

Zamonaviy pegagogik texnologiyalar hayotimizga jadal kirib kelayotgan bir vaqtda tarix darslarini manbalar yordamida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o`tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, talabalarda yozma manbalar bilan mustaqil ishlay olish ko`nikmasini shakllantirish ularni erkin fikrlash, har bir hodisa yuzasidan o`zining mustaqil fikrini bildira olish, tarixiy harakatlarni xolisona ilmiy tahlil etish xususiyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

O'qitishning zamonaviy texnologiyasini ta'lim jarayoniga joriy qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Ma'ruza darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda slaydlar namoyishi asosida dars o'tish ham asosiy talablardan biridir. Mavzu yuzasidan slaydlar aniq, to'g'ri va ta'sirchan yaratilgan bo'lishi kerak. Mazkur uslubiy qollanmada "O'zbekiston tarixi" fanidan 7-mavzu - "Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi - Vatan himoyachisi" mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyasi: ma'ruza hamda seminar mashg'ulotining texnologiyasi, ma'ruza matni, savol va test topshiriqlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari, slaydlar, glossariy, O'zbekiston tarixi faniga oid internet saytlari berilgan. Mavzuga oid slaydlardagi matnlar, xaritalar, sxemalar muallif N.U.Nurmatova tomonidan ko'pyillik pedagogik tajribasiga asoslangan holda tuzilgan bo'lib, talabalar nomonidan keng va murakkab mavzuni tez va oson o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Mazkur uslubiy qo'llanma Oliy oquv yurtlarida "O'zbekiston tarixi" fanidan dars o'tadigan professor-o'qituvchilar va talabalari uchun mo'ljallangan.

## **MO'GULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA QARSHI KURASH.**

### **JALOLIDDIN MANGUBERDI – VATAN HIMOYACHISI. (2 SOAT)**

Chingizxon (Temuchin)ning mo'gullarni birlashtirib, kuchli davlat tuzishi. "Yasoq" qonunlari. Xorazmshoh qo'shinlarining maglubiyati, uning sabablari. Jaloliddin Manguberdi-Vatan himoyachisi. Uning Xurosondagi faoliyati.

Chigatoy ulusining tashkil topishi. Boshqaruv tartibi. Mahmud Yalavoch. Soliqlar. Zulmning kuchayishi. Mahmud Torobiy qo'zgoni, uning tarixiy ahamiyati. Ma'sudbekning noib etib tayinlanishi. Madaniy hayot. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy. Burhoniddin Rabguziy, Bahouddin Naqshband.

#### **Tayanch iboralar:**

Mo'g'ullar davlati, Chingizxon, "Yasoq", O'tror fojeasi, O'tror mudofaasi, Urganch kengashi, Xo'jand qamali, Temur Malikning jasorati, Urganch qamali, Najmiddiy Kubro, Jaloliddin Manguberdi jasorati, Chig'atoy ulusi, Mahmud Torobiy qo'zgoni, Kebekxon, madaniy hayot.

#### **Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi**

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 30- 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot vizual ma'ruza, aniq holatlarni yechish.
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.</li> <li>2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari. Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi jasoratlari.</li> <li>3. Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Mahmud Torobiy qo'zgoni.</li> <li>4. Madaniy hayot. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy, Burhoniddin Rabguziy, Bahouddin</li> </ol>



Naqshband.	
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Mo`g`ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash yo`li, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy va boshqa xalq qahramonlari jasoratlari tarixini chuqurroq o`rganish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Mo`g`ullar davlatining tashkil topishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini haqida tushuncha berish; - Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari tarixini o`rganish; - Mo`g`ullarning O`rta Osiyoga harbiy yurishlari haqida ma`lumot berish; - Chig`atoy ulusining tashkil topish jarayonlarini izohlash; - Temurmalik, Jaloliddin Manguberdi va boshqa vatanparvarlar jasoratlari ahamiyatini o`rganish; Chig`atoy ulusining tashkil topishi, Mahmud Tarobiy qo`zg`oloni tafsilotlariga to`xtalib o`tish; Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumi, Burhoniddin Rabg`uziy, Bahouddin Naqshband kabi ilm ahli sohiblari faoliyati o`rganish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Mo`g`ullar davlatining tashkil topishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qiladilar; - Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari tarixiga nazar tashlaydi; - Mo`g`ullarning O`rta Osiyoga harbiy yurishlari tarixini o`rganadi; - Chig`atoy ulusining tashkil topish jarayonlarini izohlaydilar; - Temurmalik, Jaloliddin Manguberdi va boshqa vatanparvarlar jasoratlarini tahlil qiladi; - Mahmud Tarobiy qo`zg`oloni tafsilotlariga to`xtalib o`tadi;  Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumi, Burhoniddin Rabg`uziy, Bahouddin Naqshband kabi ilm ahli sohiblari faoliyati tahlil qilinadi.
O`qitish uslubi va texnikasi	Ma`ruza, klaster, munozara, texnika: taqdimot, blits-so`rov, grafik organayzerlar.
O`qitish vositalari	Ma`ruza matni, proektor, O`TV/KT texnologiyalari, doska, bo`r
O`qitish shakli	Frontal ma`ruza, guruh va juftliklarda ishlash
O`qitish sharoitlari	Namunadagi auditoriya
<i>Mustaqil ish:</i> -Jaloliddin Manguberdi jasorati, darslik va o`quv	Talaba: - Mo`g`ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi jasoratini o`rganish; -Mavzuga oid internet yangiliklari olib kelish.

qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;	
Mavzuga oid internet resurslari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.ziyoNET.uz">www.ziyoNET.uz</a></li> <li>2. <a href="http://bilim.uz">bilim.uz</a>.</li> <li>3. <a href="http://www.history.ru">www.history.ru</a>.</li> <li>4. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - Hukumat sayti</li> <li>5. <a href="http://www.press-service.uz">www.press-service.uz</a> - Prezident sayti</li> <li>6. <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a> – Oliy va o'rta – maxsus ta'lim Vazirligi sayti</li> <li>7. <a href="http://www.ziyo.edu.uz">www.ziyo.edu.uz</a> Oliy va o'rta – maxsus ta'lim Vazirligi sayti</li> <li>8. <a href="http://www.performance.edu.uz">www.performance.edu.uz</a> - Oliy va o'rta – maxsus ta'lim Vazirligi sayti</li> <li>9. ta'lim Vazirligi sayti</li> <li>10. <a href="http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/index.php">http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Pedagog/index.php</a></li> <li>11. <a href="http://www.bestreferat.ru/referat-category-76.html">http://www.bestreferat.ru/referat-category-76.html</a></li> </ol>

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchining	talabalarning
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, maqsadi va rejasini ma'lum qiladi, mashg'ulotdan kutilayotgan o'quv natijalari bilan tanishtiradi. 1.2. Mashg'ulot davomida aniq holatlarni tahlil qilishga e'tibor qilishni eslatadi (talabalar qo'llarida o'tgan dars oxirida tarqatilgan ma'ruza matnlari mavjud).	1.1. Tinglaydilar va yozadilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Avvalgi mavzuni esga solish va ma'ruza matni o'qish natijasida nimalarni o'rganganligini aniqlash maqsadida blits-so'rov o'tkazadi. Vizual materiallar asosida ma'ruza o'qiydi: -9 – 12 asrlardagi Uyg'onish davri madaniy hayotini keltirib chiqargan qanday omillarni bilasiz? - savol bilan murojaat qiladi; javoblarni umumlashtirib - Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy	2.1. eslaydilar, savollarga javob beradilar. Yozib boradilar.  Talab kategoriyasiga klaster tuzadilar.  2.2. Grafikni chizadilar,

	ahvoli haqida tushuncha beradi;	misollar keltiradilar.
	<p>- Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari tarixini ochib beradi;</p> <p>- Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqida ma'lumot beradi;</p> <p>- Chig'atoy ulusining tashkil topish jarayonlarini izohlaydi va aniq misollar yordamida slaydlar asosida tushuntiradi.</p> <p>2.3. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy, Burhoniddin Rabg'uziy, Bahouddin Naqshbandlarning ilm- fan va madaniyatni rivojlantirishdagi xizmatlarini yoritib beradi.</p>	<p>2.3. Venna diagrammasini chizadilar.</p> <p>2.4.O`zlari tayyorlagan grafik va Venna taqdimotini qiladilar.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mavzuga yakun yasaydi, umumiy xulosalarni shakllantiradi, faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Olingan bilimlarni ahamiyatini ochib beradi</p> <p>3.2. Faollik ko`rsatmagan talabalarga qo`shimcha vazifa beradi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa Jaloliddin Manguberdi jasorati mavzusini o`rganish.</p>	<p>3.1. eshitadilar, aniqlashtiradilar.</p> <p>Topshiriqlarni yozib oladilar.</p>

## **MAVZU: MO'G'ULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI –VATAN HIMOIYACHISI.**

### **REJA:**

1. Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari
2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari. Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi jasoratlari.
3. Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni.
4. Madaniy hayot. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumiy, Burhoniddin Rabg'uziy, Bahouddin Naqshband.

### **Tayanch iboralar:**

Mo'g'ullar davlati, Chingizxon, "Yaso", O'tror fojeasi, O'tror mudofaasi, Urganch kengashi, Xo'jand qamali, Temur Malikning jasorati, Urganch qamali, Najmiddiy Kubro, Jaloliddin Manguberdi jasorati, Chig'atoy ulusi, Mahmud Torobiy qo'zg'oloni, Kebekxonning ma'muriy va pul islohotlari, Qozonxon, Qozog'on, Pahlavon Mahmud, Bahouddin Naqshband

### **Mo'g'ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari**

Mo'g'ullar haqida juda ko'plab ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular menu (menva) nomi ostida Xitoyning Tan sulolasi (618-908) solnomasida ilk bora tilga olinadi. Mo'g'ul atamasi xaligacha uzining ilmiy isbotiga ega emas. Ular Oltoy va Janubiy Sibirdagi turkiy qabilalarga yaqin va kondosh bo'lganliklari extimoldan holi emas. Bu xususda olimlar turli fikolarni bildiradilar. Mo'g'ul etnogenezi ham murakkab masala bo'lib, har holda elat sifatida ular XIII asrda yuzaga kelgan bo'lishlari kerak X-XI asrlarda esa asli Amur daryosi buylarida yashagan 16 ta urug'-aymoklarga bulingan tatan (tatar) larning tarkibiy qismi sifatida ularning bir urug'idan alohida, moxe (Mo'g'ul) qabilasi vujudga kelgan deyiladi. Bu qabila tezda kuchayib 1135-39 yillari Xitoyga kator yurishlarni amalga oshirishadi. Xatto Xitoy imperatorlari 1147 yili Mo'g'ullar bilan ittifoq tuzishga ham majbur bo'lishadi.

XII asr o'rtalariga kelib Baykal ko'li atrofi, hozirgi Mo'g'uliston hududlarida yashovchi turkiy va tungus-manjur qabilalarining ko'pchiligi Mo'g'ullar rahnamosi Yesugay bahodir ta'siriga o'ta boshlaydilar. Lekin unga qarshi turgan tatar, markit qabilalarni buysundirish osonlik bilan kechmaydi. Esugayni tatarlar ziyofat paytida xiyonatkorona uddirishgandan so'ng, uning ugli bulmish Temuchinning ta'siri Mo'g'ullar ichida kutarila boshlaydi. Temuchin (1155-1227) (Mo'g'ulcha, temir ustasi)-kuchli va tadbirkor, ayyor sarkarda, parokanda qabilalarni turli yo'llar bilan uz kli ostida mustahkam birlashtirgan shaxs edi. 1186 yilda u boshqa bir Mo'g'ul sarkardasi Jamuxa erdamida uzining eski rakibi markitlarni buysundiradi. Ba'zi ma'lumotlarga kura, bu g'alabadan so'ng Mo'g'ul nuyon (harbiy boshliklar)lari va navkarlari uni olkishlab, Mo'g'ul hukmdori-xon, deb e'lon qilishgan ekan. XIII asr boshida esa tatarlar Qabilasi ustidan g'alaba kozonadi. Temuchin 1203 yili kerayitlarning xoni Ung xonni maglub etib, Kungirov va naymanlar ustidan uz hukmronligini urnatdi.

Mo'g'ullarni birlashtirish chogida Temuchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etdi. Unga kura Mo'g'ul qabilalari mingliklarga bulingan bo'lib, u butun bir boshli harbiy okrug vazifasiga to'g'ri kelar edi. Okruglar tepasiga sadokdgli kishilar kuyilar edi. Temuchin juda intizomli, sadoqatli va uta jangovar harbiy tuzilmalarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ularni boshqarishni esa avvalo, uz ugillari-Juchi, Chigatoy xoqim, Ugedey, Tuli, xotini Burte-fujen, safdoshlari Subutoy, Jebelarga topshirdi. Uz hokimiyatini tulik mus taxkamlab olgach Temuchin 1206 yili Mo'g'ullarning umum kurultoyi (kurultoy xalq xohishi degan ma'noni anglatgan) ni chakiradi. Kurul-toyda u oliy Mo'g'ul hukmdori-xon deb tantanali e'lon qilinib, unga bosh shaman Teb-Tangriy «Chingizxon» degan faxriy nom beradi. Chingiz so'zi tarixchi Rashididdinning yozishicha, kuchli, buyuk degan ma'noni anglatadi.

Kurultoyda odat bo'yicha Chingizxon uz tugi-bayrogini kutardi, 10 ta lavozim joriy etib uni uz yaqinlariga takdim etadi. Saxrodagi Korakurum shaxrini markaziy poytaxt deb belgiladi. Uz kuli ostidagi mansablarni esa 3 toifaga bo'lib, ularga aniq vazifalarni bo'lib berdi. Ularga Boorgu, Muxali, Nayaa mas'ul bo'ldilar. U uz qo'shinlarini ham islox etdi. Butun Mo'g'uliston 95 ta harbiy-ma'muriy birlikka bo'lindi. Yangi Mo'g'ul davlati-Eke Mungol ulus (buyuk Mo'g'ul davlati), deb atala boshlandi. Kurultoydan avvalrok 1203 yildayok xali bir tizimga ega bo'lmagan qonunlar tuplami vujudga kelib, u uz ichiga yorliklar (buyruklar), Yasoq (qonunlar), bilik (nasixat) larni olgan edi.

«Yasoq» bizgacha tulik etibkelmagan bo'lib, u turli ko'rinishlarda, manbalarda qayd etiladi. «Yasoq» uz ichiga quyidagilarni kiritgan: xalqaro, shaxsiy, savdo va sud huquqlari. Chingizxon tayin etgan davlat bosh xakami Shiki-Xutuxuga «yasoq»ka qarab ish tutishni qat'iy belgilab bergan edi. «Yasoq» qonunlari Mo'g'ullarning qadimiy urf-odatlarini, an'analari, mavjud siyosiy tuzum mohiyatidan kelib chiqqan holda keskin va juda kattik oxangda, patriarxal harbiy tuzumni uzida aks ettirgan ravishda tuzilgan edi. «Yasoq» qonunlarining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan bo'lgan:

1. Hukmdor (xon) «Yasoq»ka qat'iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilish, amal qilmagudek bo'lsa xonni umrbod qamash mumkin bo'ladi;
2. Chingizxon Mo'g'ullar orasida diniy adovat kelib chikmasligi uchun barchaga to'la diniy erkinlik beradi. Ruhoniylar soliqdan ozod etiladi;
3. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo'lganliklari uchun ham, urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim;
4. Jazolash darajasi sifatida o'lim jazosini eng ko'p miqdorda qo'llash,

Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga butkul raxm-shafkat kilmaslik Chingizxon shaxsiy gvardiyasi sonini (keshikdan) 9000 kishigacha etkazdi. Ular har 3 kunda navbatchilik kilar, ularning ishini shaxsan xon nazorat kilar edi. 1204 yili uyqur alifbosi Mo'g'ul yozuvi uchun qabul qilindi. Shuningdek mustakil davlat belgisi bo'lgan muxr (tamga), hamda takvim qabul qilindi. Chingizxon 1209 yilda tanrutlarni, 1211 yilda uyrurlarni, 1215 yilda esa shimoliy Xitoyni poytaxt Chjundu (Pekin) bilan birgalikda uziga tobe qilib oldi. Xitoydagi Kin sulolasi tutatilib, juda katta ulja olindi. Xitoy yurishi vaqtida yuksak harbiy maxorat va urushning yangi usullari kullanildi.

Madaniy jihatdan ancha kolok Mo'g'ullar kul jihatdan uygur va musulmon axli taj ribasidan keng foydalanishdi. Sharqiy uyrurlarning boshligi Edikut (Saodatbek) Chingizxonning dusti, maslaxatchisi va sobik naymanlar xoni Tayanxonning muxrdori uygur Tatatun Mo'g'ullarni savodga urgatar edilar. Musulmon savdogarlarining zexni, tadbirkorligiga Chingizxon doimo yuqori baho bergan edi. Shu bilan birga ulardan ko'pincha ayrokchilar sifatida ham foydalanar edi. Xitoyni zabt etgan Chingizxon shu bilan kifoya etib kolmasligi aniq edi. Badavlat Movarounnahr savdo axli, o'lkamiz behisob boyliklari, yuqori madaniyatli ajdodlarimiz yaratgan ajoyib me'moriy binolar, kolaversa qadimiy yurtimizning fayzu-tarovati Mo'g'ullarni anchadan beri uziga jalb qilayotganligi

ma'lum edi. Musulmon mamlakatlari-ning behisob boyliklari to'g'risidagi afsona-rivoyatlarni eshitib, tekin ulja va boyish istagida bo'lgan Mo'g'ul harbiy zodagonlari Chingizxon boshchiligida zimdan harbiy yurish qilish istagida turar edilar. Chingizxon davlati G'arbda Qipchoq chullari, koraxitoylarning kuchmanchi G'arbiy Lyao (Si Lyao) va Xorazmshox anushteginiylar davlati bilan chegaradosh edi. Shubxasiz uning G'arbdagi eng yirik va kuchli kushnisi hamda rakibi buyuk Xorazmshox anushteginiylar davlati (1097-1231) edi. 1215 yili Dashti Qipchoq yurishida Xorazmshox Mo'g'ullarning Juchi boshchiligidagi harbiy qo'shiniga duch keladi. Mo'g'ullar bu erlarda Chingizxonning buyruriga kura markit qabilalariga zarba berish uchun yurish qilgan edilar. O'zaro tuknashuvdan so'ng Mo'g'ullar Chingizxondan Xorazmshoxlar davlatiga nisbatan yurish qilish xususida hech qanday ko'rsatma olmaganliklari uchun orkaga chekindilar. Juzjoniyning yozishicha, sultonni har vaqt undan Sharqda joylashgan davlatlar kiziktirar va uning Xitoy tomoniga harbiy yurish qilish niyati ham bo'lganligi aniq edi. Lekin, Xitoy Chingizxon tomonidan usha yili olinganligini eshitgan Sulton bu holni tasdiqlatish va kolaversa Chingizxon davlati xususida aniq ma'lumot olib kelish maqsadida sayidlar avlodidan bulmish taniqli zot Bahovuddin Goziyni uz elchisi sifatida xon xuzuriga junatadi. Bahovuddin Goziy boshchiligidan elchilik guruhini Chingizxon Pekinda qabul qilib, ularga ijobiy munosabatda bo'ladi. Xorazm davlati elchilariga Chingizxon o'zaro ikki davlat o'rtasida tinchlik va dustlik hukmdorlik qilishi lozimligini uktirib, uzini «Sharq hukmdori», Xorazmshox Muhammadni «G'arb erlarning egasi» deb ta'kidlaydi. Xitoy yerlariga endilikda yurish qilish nojoiz ekanligini anglagan Xorazmshox uz diqqat-e'tiborini yana janub hamda G'arb erlariga karatadi. Abbosiylar xalifaligiga muvaffaqiyatsiz yurishdan so'ng, 1218 yili Muhammad Xorazmshox uzining yangi poytaxti deb e'lon qilgan Samarqand shaxriga kirib keldi va xutba, tangalardan xalifa nomini chiqarib tashlash xususida farmon berdi. Usha yili Muhammad Xorazmshox Chingizxon xuzuriga yana uz elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan kimmatbaho sovgalar va mollar ortilgan katta karvon bilan uz elchilarini xorazmshoxlar Sultoni xuzuriga yuboradi. Sultonga muljallangan kimmatbaho sovgalar ichida Chingizxon ulja olgan tuya urkachidek keluvchi oltin bulagi ham bor edi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar Maxmud Yalavoch (Maxmud al-Aromiy) rahbar etib tayinlanib, yana 2 ta odam buxorolik savdogar Alixuja va utrorlik Yusuf kankalar elchilik rutbasiga ega edilar. Sulton Muhammad bu elchilarni 1218 yil bahorida Buxoro shaxrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon Sultonning zagrarli yurishlaridan xabardor ekanliklari, uni qudratli podshox sifatida tan olib «Uzining eng ardokli ugillari katorida» kurishini bayon etishadi. Chingizxon uz nomasida kuch-qudrati zagrarin kursatish ma'nosida Xitoy va kushni mamlakatlarni qanday kuch bilan egallaganligini ham aytib o'tadi. Elchilar nomasi shubxasiz Sultonga ma'kul bo'lmaydi. Ayniqsa, Mo'g'ul davlatining xoni, uni uzining «ugli» katorida kurish, bu Sharq ustamonligida karam qilish yoki uz xomiyligini olish degan ma'noni anglatishni sulton yaxshi tushunadi.

Elchilarga sulton javobi ma'lum emas, lekin usha tunda u uz yoniga Maxmud Yalavochni chorlab bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga o'tib,

maxfiy josus bo'lib xizmat qilishni buyuradi. Uz hayotidan xavfsiragan Maxmud Yalavoch muarrix an-Nasaviyning yozishicha, «Sulton eshitishni xoxdagan» ma'lumotni aytib, Sulton taklifiga kunadi. Xorazmshox unga kimmatbaho javoxir sovg'a qilib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi.

Chingizxon Maxmud Yalavoch guruhi xizmatidan, tuplagan ma'lumotlardan mamnun bo'ladi. Zero, Yalavoch soxta «josus» rolini uynab, bor haqiqatni Chingizxonga etkazgan edi. Usha yiliyok ya'ni 1218 yili, Chingizxon sulton Muhammadga uz minnatdorchiligini izxor etish va o'zaro shartnoma tuzish maqsaddida katta savdo va elchilar karvonini junatadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 ta tuyaga ortilgan kimmatbaho mollardan iborat edi. Uz davlati qudratini pamoyon etish niyatida Chingizxon Tangut va boshqa davlatlardan ulja olingan, janubiy Sibir va Xitoydan talab keltirilgan ajoyib, sara mollar bilan xurjunlarni tuldirdigan edi. Karvon bilan shuningdek Chingizxon elchisi, Mo'g'ullardan bo'lgan Uxuna ham bo'lib, u Xorazmshoxga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi. Noma jahon fotixligiga da'vo kdlayotgan Chingizxon nomidan buyruknamo oxangda yozilgan edi. Unda «... biz bundan buyon davlatlar o'rtasida tinchlik urnatilishini buyuramiz...» deyilgan edi. Noma Chingizxon ochik-oydin jahon egasi bo'lishga ishtiyoki baland ekanligidan dalolat berar edi. Ushbu karvonda asli Movarounnahrlik bulmish Umarxuja Utroriy, Hammol Merokiy, Faxruddin Dizakiy Buxoriy, Aminuddin Haraviy singari savdogarlar karvon sarbonlari hamda urda elchilari edilar. Karvon Urganch tomon yo'l olgan edi. Lekin xorazmshoxlarning chegara viloyati Utror erlariga kirib kelishi bilanok bu karvon ushlab kolindi. Utror xoqimi Inalxon (Inolchik uning forsiy taxallusi Goyirxon edi) Turkon xotunning yaqin karindoshi, Xorazmshoxga yaqin shaxs edi. Inalxon, arab tarixchisi ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishicha, Xorazmshox ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruk berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni kirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o'rtasida taksimlanib, Xorazmshox ushbu savdo mollari pulini uziga oladi. Ba'zi tarixiy manbalarda esa Inalxon garchi karvonni tuxtatish buyrugini olgan bo'lsa ham, uz holicha uni kirib tashlagan deb ham aytiladi. Nima bo'lganda ham xorazmshoxlar ko'pol siyosiy xatog'a yo'l kuyib, elchilarni kirgin-barot qildiradilar.

Chingizxon islom olamining dushmani bo'lib kolmaslik uchun shunday yo'l tutdiki, urush boshlanishiga rasman Xorazmshox sababchi bo'lib qoldi. Uzini esa «Oliyjanob xaloskor» deb hisobladi. Aslida esa urush bo'lishini u har jihatdan xoxlar edi. Albatta Xorazmshox ham katta xatog'a yo'l kuygan edi, lekin urushning sababchisi va boshlovchisi u emas edi. Mo'g'ullar Xorazmshox ustiga harbiy yurish qilishdan avval, xonning buyrugiga kura harbiy sarkarda Jebe Ettisuv va Kashgar ustiga 1218 yil harbiy yurishlar qilib, Kuchluk davlatini tor-mor keltirdi. Musulmonlarni doimo ta'kib etib kelgan Kuchlukka qarshi bosh kutargan Sharqiy Turkiston islom axli Jebeni naymanlar zulmidan ozod etuvchi deb qabul qildi. Zero, Jebe musulmonlar uchun din erkinligi kafolatlanishini e'lon qilib, Mo'g'ullar hukmronligini mustahkamlagan edi. Shunday qilib Mo'g'ullar O'rta Osiyoga harbiy yurish qilishdan avval uz zaxira kuchlarini mustahkamlab Talas

vodiysigacha bo'lgan erlarni uz imperiyalari tarkibiga kushib oldilar. Shunday qilib ular bevosita xorazmshoxlar bilan chegaradosh bo'lib qoldilar. XIII asr boshlaridan Xorazmshox anushteginiylar davlati yuqorida ta'kidlanganidek uz hududining kengligi, saltanat egasining nufuzi, xalqning saloxiyatligi, madaniyatligi, xo'jalik hayotining yuqori saviyaligi bilan musulmon olamida buyuk davlat sanalar edi. Uzining ko'prok kanshi-Qipchoq hamda turkmanlardan iborat muntazam qo'shiniga ega edi. (Ma'lumotlarga kura umumiy qo'shinining soni 400.000 ga qadar etib, bu Mo'g'ullar qo'shininga nisbatan 12 barovar ortik edi.) Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi dargox hamda ijroiyaq devonlar tizimida boshqarilar, davlat boshliki sulton hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni xoqimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliklaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar, mustavfiy (daftardor hisobchilar), kozilar, sadrlar va boshqa ko'plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi kurshab turar edi.

Xoqimlar ko'p holda uz bilganicha ish tutishar, soliklar tuplashning ham aniq tizimi yo'q edi. Xashar yo'li bilan biron-bir yo'l, ko'prik kal'a va boshqa inshootlarni kurish (suxra giriftan) keng tarqalgan edi. Davlat ahvoli tang bo'lganda ko'p holda iktadorlarga ishonch kolmas edi. Ayrim viloyat Xoqimlari shaxsan Turkon xotunga buysunib, uz bilganlaricha ish tutar edilar. Sulton Muhammadning volidasi Turkon xotuning qo'shin oliy sarkardalari bulmish Qipchoq sarkardalari bilan aloqasi mustahkam, uzi shu qabilaga mansub bo'lganligi uchun ularni hamisha kullab-quvvatlab turar edi. Sarkardalar, qo'shin boshliklari, vazirlar, xoqimlar ko'p holda uning ijozati va ko'rsatmasi ila tayin etilar, ular ham uz navbatida, avvalo Turkon xotunga buysunar edilar. Turkon xotun boshqa turkiy Qabiladan bulmish kelini Oychechak va uning ugli, nabirasi Jaloliddinni yoktirmas, bu ikki ayol o'rtasida davlatda ichki siyosiy ixtilof kuchli edi. Xorazmshox «farzandlik mexri va hokimiyata olib kelgan shaxs» sifatida onasining so'zini ikki hamisha uning fikolariga xoxlasa-xoxlamasa kushilar edi. Muhammad Xorazmshox uzining yon-atrofdagi (Gur, Xuroson, Movarounnahr, Mozandaron, Ozarbayjon va boshqalar) uncha kuchli bo'lmagan erlarni tezlik bilan uz kul ostida birlashtirib, uz g'alabalariga juda berilib ketgan edi. Koraxitoylar ustidan kozonilgan g'alabadan (1210) so'ng esa, u uzini mutlok engilmas («Iskandari Soniy», «Sulton Sanjar», «Olloxning erdagi soyasi» va boshqa unvonlarga ega) deb hisoblab, islom olamiga egaligini ham da'vo kila boshladi. Uning armiyasi soni garchi son jihatdan ko'pchilikni tashkil etsada, bu qo'shin harbiy intizomi uncha mustahkam bo'lmagan, saloxiyati ancha past, ko'prok janubliklardan olingan yollanma qo'shin edi. Uz navbatida bu qo'shin vatan mudofaasi uchun emas, balki ko'prok istilo, talon-taroj, ulja olish uchun muljallangan qo'shin edi.

Haqiqatda Xorazmshox kuchli, uziga munosib keluvchi rakib bilan kurash olib borgani yo'q hisobi, bu esa yuqorida qayd etilganidek uz harbiy maxoratiga ulkan ahamiyat berishiga olib kelgan edi. Joylarda noib va xoqimlik lavozimidagi Xorazmdan bulmish amaldorlar oldiy xalqqa nisbatan ko'pincha zo'ravonlik tazyik ila munosabatda bular, bu esa Xorazmshoxlar davlatiga nisbatan aholining



noroziligiga sabab bular edi. Soliklar miqdori bir me'yorda turmas, mehnatkash ommaning ahvoli ancha ogir edi. Masalan, 1219 yili Xorazmshox xiroj soligini bir yo'la uch marotabagacha undirib olishga buyruk bergan edi. 1206, 1212-yillarda Samarqandda va Buxoroda xalq galayonlari zo'ravonlik va soliklar oshib ketishiga qarshi qaratilgan edi. Soliklar va zo'ravonlikdan ezilgan xalqning Sulton Muhammadga e'tiqodi va ishonchi Mo'g'ullar bosqini arafasida susayib ketgan edi. Shuningdek sultonning Bagdod xalifaligiga yurishi va uz xoshcha termizlik sayid-lardan bulmish Shayx Olamulk Termiziyning xalifa deb e'lon qilinishi Movarounnahr ulamolari ichida xakli norozilikka sabab bo'ldi. Taniqli Movarounnahrlik din arbobi Shayx Majdiddin Bagdodiyning ta'kib etilishi esa sulton bilan ruhoniylar orasida munosabatlarni mutlok keskinlashtirib yubordi.

Chingizxon uzining yaxshi tizimga asoslangan ayrokchilar tarmogi orqali Xorazmshoxlar davlatidagi ushbu ahvoldan boxabar edi. Shuningdek u ushbu qadimiy madaniyat va yuqori saloxiyatga ega Movarounnahr axlini osonlikcha buysundirib bulmasligini ham yaxshi bilib, bo'lajak maxorabaga jiddiy tayyorgarlik kurdi. Utror voqeasidan avvalrok Chingizxon qo'shinlarining Ettisuvga qilgan harbiy yurishlari sulton Muhammadni tashvishga solib kuygan edi. Garchi Xorazmshox katta qo'shinga ega bo'lsa-da, o'zaro ixtiloflar, sarkardalarga ishonchsizlik uz hokimiyatidan xavfsirash Xorazmshox qo'shinining zaiflashuvi, intizomining pasayishiga olib kelgan edi.

Muhammad Xorazmshox Mo'g'ullarga zarba berish xususida Urganchda harbiy kengash chakiradi. Unda kuzga ko'ringan davlat arboblari, aslzodalar, harbiy sarkardalar ishtirok etadi.

Asli xivalik mashxur fikxshunos hamda davlat arbobi Shaxobiddin al-Xivakiy bor qo'shinni Sirdaryo buyiga tuplab, uzoq yo'l bosib kelayotgan Mo'g'ul qo'shiniga chegara buyidayok xal kiluvchi zarba berish to'g'risida yagona va harbiy jihatdan xak fikrni bildirdi. Shaxzoda Jaloliddin ham aslida shu fikrga qo'shilgan edi. Lekin, Xorazmshox uz sarkardalariga, ayniqsa Qipchoq harbiylariga ishonchsizlik bilan karar, katta qo'shinni bir joyga tuplashdan, qo'shin yirilganda esa uzini taxtdan agdarib tashlashlari mumkin ekanligidan chuchir edi. Shuning uchun sulton va uning onasi tazyiki bilan Kengash mudofaa usuliga o'tishni ma'kul deb topdi. Jami 450 taga yaqin shahar (kal'a) va viloyatlardan iborat bulmish davlatda qo'shin katta jangga kirib vatan sharafini himoya qilish o'rniga shahar va kal'alarga bo'lib tashlandi. Ba'zi markaziy shaharlar, jumladan Buxoro va Samarqand mudofaasini mustahkamlash zarur degan fikrga kelindi holos. Ammo bu mudofaa ham yaxshi tashkil etilmadi.

Chingizxon 1219 yili uz ugillari boshlik 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri puxta tayyorlangan Xorazmshox anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi buyida utqazib, sentyabr oyida chegaradan o'tadi. Chingizxonga uygur edikuti (xoni) Baurchak karluklar xoni Arslonxon va Olmalik hukmdori Sirkteginlar ham uz qo'shini bilan kelib kushildilar. Chegaradan o'tgan Chingizxon uz qo'shini bilan janubiy qozoq chullarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi Utror shaxri yaqinida tuplab uni 4 qismga bo'ladi.

Chigatoy va Uktoy qo'shinining bir qismi bilan Utrorni kamal etib, egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Juchi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchirlikent, Signok shaharlarini bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismidagi Oesh ming chogli qo'shinga Ulok nuyon va Suketu cherbi bosh bo'lib Utrordan janubga, Xujand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi. Chingizxon uzi bosh bo'lgan To'rtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi.) Zarafshon vohasi tomon-Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo'l oldi.

Chegaradagi Utror mustahkam shahar kol'a bo'lib, Mo'g'ullarga olti oy davomida mardonavor qarshilik kursatgan edi. Utror xoqimi Inalxon (Goyirxon) kulida 20.000 chorli suvoriy bo'lib, Xorazmshox unga yordam tariqasida 50.000 kishilik «lashkari birun»ni ham yuborgan edi.

Kamal davomida qo'shimcha tarzda yana Koracha Xojib boshchiligidagi 10.000 kishilik otryad ham yuborilgan edi. Utror xoqimi jasur va mard sarkarda Inalxon unga maxorat bilan boshchilik kilar edi. Ammo, ayrim zotlarning xiyo natkorligi tufayli besh oylik kamaldan so'ng Inalxon deyarli bir oy davomida uz otryadi bilan shahar kal'asida qarshilikni davom ettiradi. Oxir-oqibatda Inalxon deyarli bir uzi kolib, kal'a tomiga chiqib, kuliga tushgan narsasi bilan Mo'g'ullarga xujum qilgan. Mard sarkardani Mo'g'ullar tiriklayin kulga tushirib, Samarqandga Chingizxon xuzuriga yuborganlar. Chingizxon esa manbalarning yozishiga kura, «kumushni eritib uz xuzurida sarkardaning kulok va kuziga kuyishni buyurgan». Inalxon shu tariqa vaxshiyona ravishda uldirilgan. Utror shaxri uz jasorati evaziga Mo'g'ullar tomonidan butkul buzib tashlandi. Buxoro yo'nalishida ketayotgan Chingizxonga Zarnuk (Zerinux) va Hyp kal'alari jangsiz taslim bo'ladilar.

Chingizxon 1220 yilning fevral oyi boshlarida (ba'zi adabiyotlarda 7 fevralda deyiladi) Sharqning qadimiy guzal shaxri, Sharqdagi islom dini gumbazi, «butun musulmon shaharlari onasi» nomini olgan «Islomiy ilmlar markazi» Buxoro yaqinida paydo bo'ldi. Uch kunlik shahar kamali boshlandi. Buxoroda bu paytda 12.000 lik shahar garnizoni va 20.000 kishilik «lashkari birun» mavjud edi. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar Ixtiyoriddin Kushlu, Inanchxon Ogulxojib, Hamid Pura Koraxitoy, suyunchxon, Mo'g'ullardan kuchib o'tgan uygur sarkardasi Kukxon (Gurxon) bosh edilar. Sarkardalardan Inanchxon bazur Amudaryodan o'tib kutulishga muvaffaq bo'ladi, Hamid Pura Koraxitoy mardonavor jangda xalok bo'ladi, qolgan-ko'tgan harbiylar Buxoroga kaytib chekinishga majbur bo'ladilar. Axli Buxoro uz himoyachilaridan ayrilgandan so'ng, shahar axli jonini salomat saklab qolish niyatida shaharliklar maslaxatlashib Buxoro kozisi Badriddin kozi boshchiligidagi bir guruh oksokollarni Chingizxon xuzuriga yuboradilar. 10 fevral kuni Buxoroga Mo'g'ullar kirib keladilar. Aksariyat shaharliklar uz qarshiliklarini davom ettiradilar, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, Mo'g'ul askarlariga qarshi xujumlar uyushtirdilar. Chingizxon bunga javoban shaharni yokib yuborishga buyruk berdi. Kukxon boshchiligidagi 400 ta mudofaachilar Buxoro arkida yana 12 kun kattik qarshilik ko'rsatdilar. Arkni egallash uchun qilingan Mo'g'ullar xatti-harakatlari zoe ketdi. Kal'adagi chukugliklar odam va hayvon uliklari bilan tulib ketdi. Kukxon va u

boshchiligidagi mudofaachilar qahramonona xalok bo'lganlaridan so'nggina ark egallandi. Buxoroliklar qarshiligi Mo'g'ullarni kattik gazablantirdi. Bu jasorat evaziga Mo'g'ullar shahar axlidan 3000 chogli kishini kirib tashladilar. Kelib chiqishidan kati nazar qolgan aholi kullikka maxkum etildi. Ma'rifatli, nozik ta'b, madaniyatli va ilmi Buxoro axli saxroilar tomonidan zulm va taxdirilanish girdobiga tortildi.

Buxorodan so'ng Chingizxon Samarqand tomon yo'l oldi. 1220 yil mart oyi boshida u Samarqandga etib kelib, yon-atrofdagi qishloqlarni er bilan yakson qildi. Chingizxon Samarqandni egallashga alohida ahamiyat berdi. Samarqandning Movarounnar uchun, Xorazmshoxlar uchun ahamiyati bekiyos ekanligini Chingizxon yaxshi bilar edi. Shuning uchun uni egallashga katta e'tibor bilan karadi. Shaharda 110.000 kishilik harbiy garnizon (undan 60.000 tasi turkiy, 50.000 tojiklar edi.), 20 ta harb ilmiga urgatilgan fil ham mavjud edi. Sulton Muhammadning tog'asi Tugayxon shahar noibi bo'lib, shahar mudofaaga birmuncha tayyor ham edi.

Shahar ozik-ovqat zaxirasi, mudofaa istexkomlarining puxtaligi jihatidan bir necha yillik kamalga ham chidash mumkin edi. Uz karorgoxini Mo'g'ullar bosqini boshlanishi bilanok sarosimada Balxga kuchirgan Sulton Muhammad ham Samarqand mudofaasiga umid kuzi bilan bokar edi. Chingizxonning uzi shahar tashqarisidagi Ko'ksaroy qo'rg'onidan turib shahar kamaliga boshchilik qildi. 1220 yilning mart oyining boshlarida shahar kattik kamal qilinib, tuxtovsiz xujum boshlandi. Kamalning 3-kunidan boshlab shahar kamaliga Chingizxonning shaxsan uzi boshchilik kila boshlaydi. Kamalning beshinchi kuni ulamo, zodagon, shahar harbiy boshliklari keyingi qarshilik maqsadga muvofik emas va ommaviy kirgin bo'lishining oldini olish kerak degan maqsadda Mo'g'ullarga taslim bo'lishga karor qiladilar. Shahar kozisi va shayxulislom boshchiligida Chingizxon xuzuriga Samarqand axli nomidan elchilar tashrif buyuradilar. Taslim bo'lgan shaharda Mo'g'ullar qilgan talon-tarojliklar tufayli «saykali ruyi zamin ast» deb uluglangan, sharqning buyuk shaharlaridan biri hisoblangan, bir paytlar gullab-yashnab turgan Movarounnahr poytaxti xuvillab qoladi va er bilan yakson qilinadi.

Hukmdorning subutsiz va mas'uliyatsizligi, harbiy boshliklarning o'zaro ittifoq bo'lmaganligi xalq mamlakat taqdirini uz holiga tashlab kuyishi oqibatida bu daxshatli voqea sodir bo'lgan edi. Bu vakda Sulton Muhammad Xorazmshox janubda, Balxdagi uz karorgoxida turib, voqelikni befarq kuzatuvchi sifatida harakatsiz turar edi. Mo'g'ullar kirib kelayotgan vaqtdayok unga Irokka qarab chekinishni ba'zi amaldorlar maslaxat berishgan edi. Ko'pgina sargardonliklardan so'ng Sulton Kaspiy dengizining janubidagi Ashurali oroliga borib urnashadi. Ham jismoniy, ham ruhiy, ma'naviy ezilgan sobik hukmdor bu erda plevrit (upka kobigiga suv yigilishi) kasaliga chalinib, uz ugillarini yoniga chorlaydi. Uz gunoxlariga ikror bo'lgan holda ushbu orolda xorlik va azob-ukubat bilan 1220-yilning dekabr oyida vafot etadi. Oradan birmuncha vaqt o'tgandan so'ng Jaloliddin otasining murdasini tog'lik Ardaxn kal'asiga olib borib dafn etadi. Ardaxn Mo'g'ullar tomonidan zabt etilgandan so'ng, uz vaqtida Sultonni tiriklayin

kulga tushira olmagan alamzada Mo'g'ullar uning murdasini kavlab olib, Ugedeyga (Uktoy) yuborishgan.

Ugedey esa uning murdasini yokib yuborishni hamda kulini kukka sovrishni buyurgan. Shuningdek xorazmshoxlarning uz vaqtida Sulton tomonidan Ardaxnga yashirilgan eng kimmatbaho 10 ta sandikka joylangan javoxirlari ham Mo'g'ullar kuliga ulja bo'lib tushgan edi.

Chingizxonning katta ugli Juchi boshchiligidagi Mo'g'ul bosqinchilari reja bo'yicha Sirdaryoning yuqori qismidagi erlarni egallashi lozim edi. Bosqinchilar ma'lum muddatdagi kamaldan so'ng Signok va Borchiligkent shaharlarini egallaganidan so'ng mustahkam kal'a hisoblangan Xujandga xujum boshlaydilar. Mo'g'ullar 20.000 nafar qo'shin va 50.000 ming chorli asirga tushgan xasharchilarni Xujand atrofiga yigadilar. Xujand xokimi Temur Malik asli turkiy sarkardalardan bo'lib, Xorazmshoxlar davlatida nom chiqargan, Sulton va uning oilasiga tanish bo'lgan shaxs edi. Mo'g'ullarga qarshi tura olish mumkin emasligini sezgan Temur Malik (malik -xokim ma'nosida) taxminan 1000 nafar askari bilan Xujanddan bir kilometr naridagi Sirdaryoning mu'jazgina orolida joylashib oladi. Qulay strategik ahamiyatga ega bo'lgan orolga Mo'g'ullar uklari, palaxmon toshlari etib bormas edi. Temur Malik buyrug'iga ko'ra 12 ta qayiq yasatilib, uk utmasligi, yonib ketmasligi maqsadida bu qayiqning usti namat bilan koplanib, sirka shimdirilgan loy bilan suvab chiqiladi. Temur Malik uzoq vaqt mudofaa uchun endilikda orolchada turish maqsadga muvofik emasligini tushunib, bor ozik-ovqat zaxirasi va askarlarini 70 ta kemaga joylab, tunda daryoning kuyi oqimi bo'ylab so'zib ketadi. Mo'g'ullar ikki sohil bo'ylab Temur Malik kemalariga tuxtovsiz xujumni uyushtirar edilar. Xatto Banokat buyida daryoning u sohilidan bu sohiliga zanjir ham tortib kuyadilar. Uzoq uzluksiz jang bilan ular Jandga qadar etib keladilar. Mo'g'ul sarkardasi Ulus Idi Borchilirkent va Jand yaqinida manjaniqlar (tosh otar zambaraklar) urnatib, qayiq'larni bir-biriga tutashtirib, jasur sarkarda yo'lini tusadi. Uzoq janglardan so'ng Temur Malik Urganchga etib keladi va Urganch himoyasida katnashib, Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi. Keyinrok uzoq sargardonliklardan so'ng sarkarda Temur Malik uz yurtiga darvesh sifatida kelib, qahramonona ravishda Mo'g'ul harbiylari kulida xalok bo'ladi. Chingizxon 1220 yilning yozini Movarounnahr janubida utkazmokchi bo'ldi. Chunki u janub shaharlarini egallashga shaxsan bosh kushgan edi. Zero, janubda xali bosqinchilar kadami etmagan bir kator boy viloyat va shaharlar mavjud edi.

Avval u Naxshabga bostirib bordi. Shaharliklar Mo'g'ullarning mislsiz zo'ravonlik va bosqinidan yaxshi xabardor edilar. Naxshab axli daxshatga tushib, shaharni mug'ullarga ixtiyoriy topshiradilar. Chingizxon yozni Naxshabda utqazib, 1220 yilning kuzida Termizga yurishni boshlaydi. Termiz Hindiston va O'rta Osiyo savdo yo'llari tutashgan qulay erda joylashgan bo'lib, uning Amudaryo sohiliga tutashgan kal'asi uz vaqtida mustaxkam ravishda barpo etilgan edi. Termiz xokimi Faxriddin Xabash Mo'g'ullar bosqiniga mardonavor turib javob berishga karor qildi. Mudofaaning un birinchi kuni shahar egallandi. Shahar butkul talon-taroj qilinib, xonavayron etildi. Shahar axli esa dashtga xaydab chiqilib kirib

tashlandi. Movarounnahrning asosiy qismlari-Sirdaryo xavzasi, Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari, Buxoro vohasi, Shosh va Farg'ona vodiysi egallangach, Chingizxon endilikda uzining asosiy e'tiborini Xorazmshoxlar davlatining markazi Xorazm o'lkasiga karatdi. Bu yurishga ug'illari Juchi, Chigatoy, Uktoy (Ugedey)larni mas'ul qildi. Ayniqsa, xon musulmon Sharqining eng katta shahri bo'lmish, madaniyat, savdo gullab yashnagan boy-badavlat qadimgi Urganch (Gurganj) istilosiga katta ahamiyat bilan qaradi. Ushbu yurish 1221 yilning boshida boshlandi.

1221 yilning boshida «sulton», deb e'lon qilingan Jaloliddin va shaxzodalar Okshox Uzlokshoxlar bilan Urganchga keladi. Lekin Urganchdagi siyosiy vaziyat, sobik Jand noibi Kuglugxonning unga qarshi suikasdi, Qipchoq sarkardalarining xoinona uzlarining tutishlari, Jaloliddinni shahar mudofaasiga bosh bo'lish fikridan kaytaradi. Qipchoqlar uni hokimiyat tepasiga kelishini xoxlamas edilar. Bunday vaziyatda mudofaani tashkil etib bulmasligi aniq bo'lib qolgan edi. Ushbu voqealardan so'ng Jaloliddin Temurmaliq bilan birgalikda 300 ta kishi bilan shaharni tark etib Xurosonga yo'l oladi. Uning ortidan esa, tez orada Okshox va Uzlokshoxlar ham yo'l olishadi. (Jaloliddin-ning faoliyatini alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofik bo'lgani uchun keyinrok bu buyuk shaxs faoliyati tufisda batafsil tuxtalinadi).

Urganchda esa shahardagi Qipchoq sarkardalari-Ugul Xojib, Erbuka paxlavon, Ali Darugiyniy va boshqalar Turkon xotunning jiyani yosh Xumorteginni sulton deb e'lon qiladilar. Xumortegin layokatsiz, uz fikriga ega bo'lmagan, kurkok shaxs edi. Urganchga Chingizxonning ugillari Juchi, Chikatoiy, Ugedey, taniqli Mo'g'ul sarkardalari Tulun cherbi, Ustun nuyon, Kozon nuyon boshqalar uz harbiy kuchlari bilan etib keladilar. Xorazm Juchi boshqaruvi ilkiga tushganligi uchun ham, Juchi shaharni tinchlik bilan Mo'g'ullarga topshirishni talab etadi. Lekin nima bo'lganda ham jasur shahar himoyachilari mudofaaga Qat'iy tayyorgarlik kurib jonajon shaharlarini Mo'g'ullarga berishdan katiy bosh tortdilar. Poytaxt atrofini 100.000 dan ziyod Mo'g'ullar qo'shini bilan urab olish boshlandi. Shahar devorlarini buzish uchun manjaniqlar urnatiladi. Mo'g'ullar shaharni katta kuch bilan zabt etishga kirishdilar. Yangi «sulton» shahar mudofaasiga bosh bula olmaydi. 1221 yili boshidan boshlangan Urganch kamali deyarli 7 oy davom etadi. Shahar axli Mo'g'ullar qurol-yarog'i, palaxmon toshlarni otuvchi manjaniqlar zambaraklardan chuchimay mardonavor kurashga kiradilar. Nayza ukklaridan kurkmay shahar devorlarining buzilgan erlarini kayta tiklay boshlaydilar. Bir guruh urganchlik harbiy navkarlar shahardan deyarli 1 farsax uzoqlikdagi bori-Xurram degan joyda Mo'g'ullarga zarba berishga harakat qilib, qahramonona jang qildilar. Lekin Juvayniyning yozishiga kura, jangda qo'shin va qurol jihatidan ustun Mo'g'ullar jangchilar bilan birgalikda 100.000 dan ziyod tinch aholini kirib tashlaydilar. Sulton zobitlarining boshligi Faridun Ruriy uzining 500 kishilik harbiy otryadi bilan mardonavor shahar devorlari va darvozalari himoyasiga bosh bo'ladi. Lekin kurkok «sulton» Xumortegin shahar darvozasini ochib berib, uz hayotini saklab qolish maqsadida xiyonatkorona ravishda Mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Istilochilar shaharga bostirib kira boshlaydilar.

Shahardagi janglarda xorazmlik mashxur alloma, faylasuf va olim, «Kubroviya» tariqatining asoschisi Axmad ibn Umar Abul Janob Najmiddin al-Kubro al-Xevakiy (1145-1221 yy.) ham faol kdnashdi. Uziga «Yo Vatan, yo sharofatli ulim», degan g'oyani shior qilib olgan bu 76 yoshdagi buyuk shayx Mo'g'ullarning taslim bo'lish haqidagi takliflarini rad etib, uzining behisob shogird, dustu-yoron, muxlisu-safdoshlari bilan shahar ichki mudofaasida ishtiroq etadi. Uning jangovar chakirigiga muvofik har bir qarich erni shaharliklar qahramonona tarzda, bir tomchi qonlari qolguncha himoya qiladilar. Najmiddin Kubro qahramonona tarzda jang qilib, o'lim oldidan Mo'g'ul navkariga tashlanib uni avval halok qilib, shahid bo'ladi. Shahar mudofaasi cho'zilib, xatto Chingiz o'gillari Juchi va Chigatoy o'rtasida ham ixtilof chiqib, uni egallash boshqa bir o'g'li Ugedeyga topshiriladi. Behisob kon daryo bo'lib okib, bundan so'nggi himoya befoydaligini sezgan shaharliklar qolganlarning jonini saklab qolish maqsadida taslim bo'lishdan uzga choralari qolmaydi. Shahar qulga olinganda uning asosiy qismi buzilgan, xonavayron bo'lgan edi. Shundan keyin ham Mo'g'ullar Amudaryo turonini buzib, shaharni suvga bostiradilar.

Urganch kamali bilan bir vaqtda Chingizxon 1221 yilning bahorida uzining e'tiborini Amudaryodan janubdagi yirik savdo yo'llari ustida joylashgan boy madaniyat markazlari bulmish Balx Xiro, Gazna, Kandaxor, Nishopur va boshqalarga karatdi. Chingizxon shaxsan Balx yurishiga boshchilik qilib, shaharni zabt etib, Balx aholisini kdoi b tashladi. Ba'zi, bir janublik Xorazmshox noiblari, jumladan Amin-al mulk ham Mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona o'tib ketdilar. Jaloliddinga qarshi kurash vaqtida kator kal'a, shaharlar kattik janglar ila ishgot kdlindi (Bamiyon, Gazna, Kandaxor, Gardiz, Valiyon va boshqalar). Ular-ning janubdagi oxirgi egallagan shaxri Xindistonning shimoliy g'arbidagi Multon bo'lib qoldi. Manbalarda «Jahon sultonlari poytaxti» va «Insoniyat buyuk farzandlari beshigi» nomini olgan Urganch, Sharqdagi «Islom tayanchi» Buxoro, qadimiy Afrosiyob vatani Samarqand (masjidlarning soni 1200 taga etgan) bilan mashxur «Kubbatul islom» Balx uz madrasalari bilan donri ketgan Marv, uzining nozikta'b ilmi kishilari bilan ma'lum Nishopur va ko'plab ma'lum va mashxur shaharlar talon-taroj etilib vayron qilindi. Mo'g'ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba'zi shaharlar, masalan, Utror, Sig'nok Barchilig'kent va boshqalar umuman uzoq vaqtgacha dashtu-biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi ibn al-Asir (1160-1244) Mo'g'ul bosqini xususida shunday deb yozgan edi: «Ular (ya'ni Mo'g'ullar) hech kimga shafkat kilmadilar, aksincha, xotinlar, bolalar, erkaklarni uldirdilar, xomilador ayollarning Korinlarini yorib, tugilmagan gudaklarni nobud qildilar... Bu mo'sibat tulkinlari turli tomonlarga tarqaldi va uning fojiasi umumiy bo'lib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga xaydagani kabi butun viloyatlarga yoyildi. Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Kashgar va Balasog'un kabi viloyatlarni, Movarounnahrda Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarini vayron etib, kirgin qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar hech qaysi shaharlarni omon qoldirmadilar, ketayotib hamma erni vayron etdilar. Ular nimaniqu yonidan o'tgan bo'lsalar, uzlariga yokmagan barcha narsalarga ut kuydilar».

## **Jaloliddin Manguberdi - yurt himoyachisi**

*Jaloliddin Manguberdi-ona yurt  
himoyachisi, jasur sarkarda va davlat  
arbobi, xalqimizning Spitamen, Mukanna,  
Najmiddin Kubro, Amir Temur singari  
tarixda uchmas iz qoldirgan milliy  
qahramonidir.  
Islom Karimov*

Tariximizdagi ulug' zotlardan biri Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo'lida jon fido kalgan Jaloliddin Manguberdidir. U rta acp musulmon mualliflari, jumladan uning vaziri va mirzasi ham bo'lgan an-Nasaviy uni Mankbo'rni, (ya'ni mank belgi, hol degan ma'noda, holdor burunli degan ma'noni anglatgan) nomi bilan atashgan.

Jaloliddin Manguberdi (Mankbo'rni) xotirasini abadiylashtirish va tarixiy adolatni karor toptirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1998 yil 24 sentyabrda 408-sonli maxsus karor qabul qildi. Ushbu karorga muvofik buyuk sarkardaning tavallud tuyi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib utildi. Yubiley munosabati bilan Urganchda sarkardaga ulkan memorial yodgorlik urnatildi, O'zbekiston Respublikasi FA Tarix va Sharqshunoslik institutlari, Xorazm Ma'mun akademiyasi, bir kator oliy o'quv yurtlari, turli jamgarmalar mutaxassislari tomonidan ko'plab risolalar chop etildi, moxir rassom T. Kuryozov tomonidan sarkardaning portreti yaratildi, «Jaloliddin Manguberdi-Vatan, yurt himoyachisi» mavzuida xalqaro ilmiy anjuman utkaziddi va eng muhimi Prezident I. Karimov boshchiligidagi hukumat va parlament a'zolari, chet ellik mexmonlar, yurtimiz mexmonlari ishtirokida ulkan teatrlashtirilgan tamoshalar bo'lib utdi.

Jaloliddin ogir bir paytda Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi Mo'g'ullar tomonidan istilo etilgan, imperiya qo'shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik yo'lga, qolgani uz joni-mulkini asrash yo'lga tushgan, sulton mamlakatni uz holiga tashlab kuygan, o'zaro sarosima za taxlika hukm surgan bir vaqtda tarix saxnasida paydo bo'ldi. Jaloliddin shunday bir ogir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, Mo'g'ullarga qarshi 11 yil kurash olib bordi. 14 marotaba Mo'g'ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida goliblikni kulga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Mo'g'ullar bosqini arafasida Jaloliddin garchi katta ugil bo'lsada, buvisi Turkon xotun tomonidan hokimiyatdan chetlatilgan bo'lib, taxt vorisi etib Turkon xotun urushidan bulmish boshqa bir shaxzoda Kugbiddin uzlokshox valiaxd, deb e'lon qilingan edi.

Gazna, Bamiyon, al-Fyp, Bust, Takinobod, Zamin-Davora va Hindiston bilan chegaradosh erlar esa Jaloliddinga mulk etib berilgan edi. Garchi Jaloliddin buvisining izmi bilan markazdan chetlatilgan bo'lsa-da, lekin sulton unga alohida muxabbat bilan karar, uning jasugligini kadrlar va uni uzidan uzoq lashib

ketmasligini xoxlar edi. Shuning uchun ham unga vazir etib taniqli davlat amaldori Shams-al Mulk Shaxrbiddin Alp al-Haraviyni, noib (o'rinbosar) etib esa sarkarda Kuzbar Malikni tayinlaydi. Muhammad Xorazmshox plevrit (upkaga suv yigilish) kasali bilan og'rib taxminan 1220 yilning oxirlarida (xijriy 617 y) kuvrinlikda Kaspiy dengizidagi Ashurali orolida vafot etadi. Ulimi oldidan sulton Jaloliddinni taxt vorisi deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutbalarini unga topshiradi. Jaloliddin uz inilari Uzlokshox va Okshoxlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to'g'ri Xorazm, Urganchga keladi. Tez orada unga Xujand xoqimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar kelib kushiladilar. Xalq Jaloliddin Manguberdini shodu xurramlik va katta umid bilan ko'tib oladi.

Lekin inisi Uzlokshox va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda Mo'g'ullarga qarshi kurashib bulmasligini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha Xorazmni tark etadi. Hozirgi davrdagi yangi tadqiqotlar shuni kursatayaptiki, Jaloliddinning Mo'g'ullar bilan ilk tuknashuvi avval boshida Jand viloyatidagi Irgiz dashtida bo'lgan ekan. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson erlaridagi Niso Qo'rg'oni atrofiga etib keladi. Chingizxon sulton ugillarining Xorazmga kaytganliklaridan xabar topgach agarda ular Xurosonga chekinmokchi bo'lsalar, ularga qarshi chikadi degan maqsadda uz qo'shinidan Xurosonning har eriga pistirmalar kuyadi. Jaloliddin Niso yaqinida uzning 300 ta askarlari bilan Mo'g'ullarning 700 kishilik otryadini zarbaga uchratadi.

Mo'g'ullar batamom marlub etiladi. Bu vaqtda Jaloliddinning ukalari uzlokshox va Okshoxlar sarosimaga tushib, nima qilishlarini bilmay, Jaloliddin ketidan ular ham Xurosonga ketishadi. Mo'g'ullarning kichik otryadi ustidan g'alaba Kozonib, bu g'alabaga juda katta e'tibor berib yuborishadi. Shundan so'ng ayshi-ishratga berilib, Xurosonning Xabushan shaxri yaqinida Mo'g'ullarga qarshi navbatdagi kurashda kulga tushib, katl etiladilar. Mo'g'ullar katl etilgan shaxzodalarning kallalarini namoyishkorona tarzda birmuncha vaqt Xurosonda olib yurishadi.

Jaloliddinning yana bir inisi Rukniddin Gursanjiy (manbalar unga akl-zakovat va kurkamlikda tengi yo'q deb ta'rif berishgan) Eronning Ustunavand kal'asida 6 oy Mo'g'ullarga qarshi kurash olib borib, mardonavor tarzda xalok bo'ladi. Jaloliddin esa bu vaqtda Nishopurga etib keladi. Bir oy davomida Mo'g'ullarga kurashish maqsadida barcha amir, sarkardalarga qo'shin yigish xususida murojaat qiladi. Mo'g'ullar uning ushbu faoliyatidan xabardor bulganliklarini bilgach, Zavzon (Nishopur va Xirot oraligida) tumanidagi al-Koxira kal'asiga kelib urnashadi. Afsuski, bu vaqtda mahalliy noib xoqimlar uning atrofida jiplasha ololmaydilar. Xali etarli kuchga ega bo'lmagan Jaloliddin kal'ada uzoq turish xavfli ekanligini tushunib, Gazna tomon yo'l oladi.

Chingizxon esa bu vaqtda ulkan qo'shin bilan Xurosonga izma-iz kelayotgan edi. Jaloliddin Gaznaga etmasdan yaqin orada Xirot xoqimi hamda kayinotasi bulmish Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Kandoxor kal'asini kamal qilayotgan Mo'g'ullar ustiga yurish qiladilar. Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora «piyoda yoyandozlar»ni Mo'g'ullarning otlik askarlariga qarshi



kuyadi. Inglizlar keyinchalik bu harbiy usulga yuqori baho berib, uzlarining Kress yonidagi mashxur janglarda undan foydalanishadi. Uch kunlik jangdan so'ng Mo'g'ullar marlub etilib Jaloliddin golib bo'ladi va u Gazna tomon yo'l oladi.

U 1221 yilning fevralida Gaznaga kirib keladi. Manbalarning qayd etilishicha, xalq Jaloliddinni juda katta tantana bilan ko'tib oladi. Shahar xuddi xayit bayramidek shodu-xurramlikka tuladi. Gaznada Jaloliddin xizmatiga Sayfiddin Urrok al-Xalajiy, Balx xoqimi A'zam Malik afgon qabilalari sardori Muzaffar Malik va karluklar rahbari al-Xasan karluk uz qo'shinlari bilan kushiladilar. Jami qo'shinning soni tarixchilarning xabariga kura 90-130 ming kishi atrofida bo'lgan. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudratini oshib borayotgani va Mo'g'ullar undan Kandaxorda zarbaga uchraganligidan gazablanib, nuyon Shiki Xutuxu boshchiligidagi kutlinni uning ustiga yuboradi. U 1221 yilning kuzida Jaloliddin erlariga yaqinlashib keladi. Bu vaqtda Mo'g'ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligidagi ilg'or guruhi Chorikordan shimolrokdagi Valiyon qo'rg'onini kamal qilishni boshlagan edi.

Jaloliddin bir hamladayok Mo'g'ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo'ladi. Bu jangda Mo'g'ullarning 1000 dan oshik kishisi xalok bo'ladi. Ko'plab tarixchilar jumladan, ibn al-Asir, Juvayniy, Rashididdin bu jangga yuqori baho bergan edilar. Jaloliddinning Mo'g'ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221 yilning kuzida shimoliy Afronistonning Lagar daryosi buyidagi Parvona dashti yaqinida bo'lib o'tadi. Birlashgan qo'shinga shaxsan Jaloliddinning uzi lashkarboshilik qilib, ung kanotga Amin Malik chap kanotga Sayfiddin Urrok boshchilik qilishadi. Mo'g'ullar jon-jaxdlari bilan kurashga kiradilar. Xatto Shiki Xutuxuning buyruri bilan Jaloliddin kutiiniga xavf turdirish maqsadida har bir Mo'g'ul askari orkasiga tulup utqazib ham kuyishadi. Parvona jangi Mo'g'ullarning mutlak maglubiyati bilan tugab Shiki Xutuxu qolgan ko'tgan qo'shini bilan Chingizxon xuzuriga bazur kochishga ulguradi.

Parvona yaqinidagi jang Movarounnahr va Xuroson axli uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu paytgacha Mo'g'ullarning iloxiy, engilmas kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap suzlarga, afsonalarga chek kuyildi. Jaloliddinning g'alabasidan Movarounnahr va Xuroson xalqlarining ruhi kutarildi, g'alaba ta'sirida Saraxs, Marv, Xirotda va boshqa Xuroson shaharlarida Mo'g'ullarga qarshi xalq isyonlari boshlanib ketdi. Buxoroda bosh kutargan aholi esa Mo'g'ullarni shahardan sikib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Chingizxon Jaloliddinning kuchayib borishi, uning xalq ommasi tomonidan kullab-quvvatlanilishi Mo'g'ullar bosib olgan erlar uchun qanchalik xavf turdirishini yaxshi anglab etgan edi. Shu sababdan ham shaxsan uzi Jaloliddinni qanday qilib bulmasin maglub etish maqsadida shitob bilan katta qo'shinga bosh bo'lib, janub tomon yo'l oldi.

Jaloliddin qo'shini Parvona jangidan so'ng katta uljani kiritgan edi. Ushbu uljaning taksimlanishi vaqtida Jaloliddinning ikki sarkardasi Amin Malik va Sayfiddin Ugrok o'rtasida ixtilof chikadi. Ixtilof natijasida Sayfiddin Ufok va undan keyin boshqalar ham qo'shından ajrab chiqib ketadilar. Jaloliddinning qo'shini kamayib u nihoyatda ogir bir ahvolda qoladi. Jaloliddinning uni tark etgan

sarkardalarga kayta ittifoq tuzish, dushmanga qarshi birgalikda kurash olib borish to'g'risidagi murojaati zoe ketdi. Jaloliddin ichak ogrigi kasaliga duchor bo'lib turgan paytida Mo'g'ullarning ilg'or guruhi Gardezga (Gaznadan 50 km. sharqda joylashgan shahar) urnashganligidan xabardor bo'ladi. Jaloliddin xastaligiga karamasdan Gardezdagi Mo'g'ul askarlariga tusatdan zarba berib, ularni maglubiyatga uchratadi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo'shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (xind) daryosi buyiga chekinishga karor qiladi.

Jaloliddinni qanday qilib bulmasin maglub etish va uni kulga tushirish ilinjida bo'lgan Chingizxon uni izma-iz ta'kib etib keladi. Jaloliddinni ta'kib etib kelayotgan Mo'g'ullarga ayniqsa, Bamiyon kal'asi kattik qarshilik ko'rsatdi. Bamiyon kamali vaqtida Chiratoyning ugli, Chingizxonning suyoqli nabirasi Mutulk xalok bo'ladi. Bundan dargazab bo'lgan Chingizxon kal'adan bironta ulja, bironta odamni asirlikka olmay barcha kal'a axlini kirib tashlashni buyuradi. Er bilan yakson qilingan sobik Bamiyon kal'asi keyinchalik Mo'g'ullar tomonidan Mubaliq (ya'ni axmokona shahar) nomini oladi.

Nihoyat 1221 yilning 25 noyabri, payshanba kuni (xijriy 618 yil shavval oyining sakkizinchi kuni) Sind daryosi buyida uch kun davom etgan xal kiluvchi jang boshlandi. Bir kator o'rta asr musulmon tarixchilarining ta'kidlashlaricha, bunday konli, keskin va daxshatli jang tarixda ruy bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo'shini misli kugilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalarini kursatadilar. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo'shini ustunlikka erisha boshlaydi. Jaloliddinning taxminan 7-8 yoshli ugli Chingizxon otryadi kuliga tushib kolib uldiriladi. Jangda mardonavor kurashgan Amin Malik va boshqa ko'plab sarkarda, navkarlar xalok bo'ladi. Chingizxon qanday qilib bulmasin Jaloliddinni tiriklayin kulga olishga buyruk beradi. Jaloliddin esa uni kulga olishga intilayotgan Mo'g'ul qo'shini kurshovini shaxsiy bahodirligi bilan yorib chiqib, Sind daryosi buyiga etib kelishga muvaffaq bo'ladi. Daryo buyida onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar uni ko'tib turishar edi. Shundok ham bu jangdan ruhiy va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular «... bizni uldiring va mash'um asirlikdan kutkaring» deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga chuktirishga ko'rsatma berishdan boshqa iloji kolmaydi. Uzi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi beti-Hindiston tomonga so'zib o'tadi.

Jaloliddinning har qanday vaziyatda ham uzini yo'qotmasligi, uning jasorati va mardligiga Chingizxon ham tan beradi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishlariga qaraganda Jaloliddinning jasoratiga koyil kolib, Chingizxon uz ugillariga karata: «Otaning faqat shunday ugli bo'lishi lozim. U olovli jang maydonidan uzini kutkarib, xalokatli girdobdan najot kirgogiga chikdimi, undan xali ulug ishlar va kiyomatli isyonlar keladi!»,-dedi va uning orkasidan ta'kib etishni takikladi.

Sind daryosi buyidagi jangdan cyng Chingizxon uch oy davomida Jaloliddin qo'shinidan uz vaqtida ajrab ketgan sarkardalar kal'alarini kulga olib, ularni yo'q qilish bilan band bo'lgan.

Rashididdinnin yozishiga kura, Jaloliddin daryodan taxminan 120 ta tirik qolgan kishilari bilan Hindiston kirgogida uchrashadi. Jaloliddin ham tirik

qolganlar ham ma'naviy-ruhiy ham ogir janglardan jismoniy ezilgan holda murakkab bir ahvolda qolishgan edi. Bu vaqtda mahalliy xind rojalaridan biri Shatra 40.000 chorli otryadi bilan daryoning bu betiga so'zib o'tgan xorazmliklarni kirib tashlash uchun etib keladi. Faqatgina Jaloliddinning tengsiz bahodirligi va qahramonona xatti-harakati tufayli Shatra uldirilib, qo'shin orkaga chekinadi. Bu jangdan xorazmshox askarlarining ruhi ham kutarilib, tez orada Jaloliddin uz atrofiga 3 ming kishilik askarni yigishga muvaffaq bo'ladi. Ogir vaziyatlarda ham uzini yo'qotmasdan, kaldi bukilmagan sarkarda Hindistonga utgach, Sind daryosi buyidagi erlarni ishgol kila boshlaydi. Tez orada Jaloliddinning hokimiyatini Dexli sultoni Shamsidkin Elto'tmish (12P-1236) va Sind, Uchcha, Mu'ltton, Loxur va Peshovar xoqimi bulmish Nosiriddin Kubacha (1205-1227) ham tan oladilar.

Hindistonda Jaloliddin 1223 yilning oxirlarigacha bo'lib, xorazmshoxlarning azaliy mulki bo'lgan Irok va Eronni uz izmiga kiritish maqsadida yo'lga otlanadi. Uz o'rniga noib etib, taniqli sarkarda Jahon polvon O'zbekni qoldirib ketadi. Jahon polvon to 1229 yilgacha Hindiston mulklarini boshqarib, so'ngra Jaloliddin xuzuriga Irokka qarab ketadi va uning harbiy yurishlarida elkadosh bo'lib xizmat qiladi. 1224 yilning boshida Jaloliddin Kirmonga kelib, Kirmon sultoni bulmish ukasi Giyosiddindan yordam uchun 4000 kishilik qo'shin oladi. U uzining asosiy maqsadi Mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashib, mustakil davlat yalovini tiklash ekanligini bildiradi. Uning Sheroz va Isfaxonga tashrifini xalq katta tantana bilan ko'tib oladi.

Jaloliddin Mo'g'ullarga qarshi birgalikda kurash olib borish maqsadida ukasi Giyosiddin Pirshox Bagdod xalifalari az-3oxir (1225-1226), so'ngra al-Muntansir (1226-1242), Gurjiston malikasi Rusuda va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin Mo'g'ullar kasosi, kolaversa, Jaloliddinning hokimiyati kuchayib ketishidan chuchigan ko'pchilik musulmon xoqim, hukmdorlari u bilan ittifoq tuzishni xoxlamaydilar. Bagdod xalifaligi, ismoiliylar xoqimi Muhammad III (1221-1255)lar esa Mo'g'ullar bilan yaqinlashishga, Jaloliddinga qarshi ochikdan-ochik kurashishga bel boglaydilar. Malika Rusuda va uning vaziri Avak bilan o'zaro ittifoq xususidagi takliflari zoe ketgandan so'ng 1226 yil fevralida sarkarda Gurjistonga yurish qiladi. Gurjiston kattik jang ila egallanib, bu erda ko'plab konli, mash'um voqealar bo'lib o'tadi. Bosh kutargan Gurjiston ikkinchi marotaba 1228 yil egallangach, bu erlar kattik talon-taroj qilinadi.

Bir vaqtning uzida Jaloliddin Manguberdi Kirmonda unga qarshi bosh kutargan xiyonatkor Barak Xojibga, ismoiliylarga qarshi kurash olib borishga to'g'ri keladi. Shuningdek ahamiyatli hisoblangan Ararat tog'liklari etaklarida joylashgan Xilat Kal'asi ham Jaloliddinga uzoq vaqt mobaynida qarshilik kursatadi. 1227 yili oxirlarida Mo'g'ullarning Eronga kirib kelishi niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi katiy jangga kirishga tayyorgarlik kuradi. Mo'g'ullarning usha yili yuborilgan 2000 kishilik avangardi tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfaxonda namoyishkorona tarzda katl etiladi. 1228 yil 25 avgustida Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal nuyon boshchiligidagi Mo'g'ul istilochilari bilan Isfaxon yaqinida xal kiluvchi jang bo'lib utdi. Garchi jang vaqtida ukasi Giyosiddin xoinlik qilib, uz qo'shini bilan Luristonga chekingan bo'lsada,

Jaloliddin katiy ravishda bu holatga e'tibor kilmay kurash olib boradi. Manbalarning suzlashicha, xatto Mo'g'ul nuyonining uzi «Sen haqiqatdan ham uz davrining erkak urloni ekansan»,-deb uning jasoratiga tan bergan ekan. Jaloliddin bu jangda butkul goliblikni kulga kiritadi. U sakkiz kun mobaynida Erondagi Mo'g'ullarni izma-iz ta'kib etib ularni mamlakatdan xaydab chiqaradi.

Juma kuni erta tongda muzaffar sarkarda sifatida Isfaxonga kirib kelgach, xalq uni golib sulton sifatida shodu-xurramlik bilan ko'tib oladi. Jaloliddinning zagrarli g'alabasi ovozi butun islom olamiga keng tarqaladi. Usha yili xatto Mo'g'ullarning buyuk xoni bulmish Ugedey Jaloliddinning Mo'g'ullar ilkiga tushib qolgan egachisi Xonsulton orqali maktub yuborib, u bilan sulx tuzish niyati borligini ham bayon qiladi.

Jaloliddin bu diplomatik kelishuvdan voz kechib, xatni javobsiz qoldiradi. Jaloliddin murakkab va ziddiyatli davrda yashadi. Shubxasiz u uz davrining farzandi edi. U qo'shinlarining ko'plab harbiy yurishlar vaqtida talonchilik zo'ravonlik qilishlariga goxida kuz yumdi, xonavayronchilik keltiruvchi ishlarga bosh kushdi. Bu esa Eron, Ozarbayjon, Irok Gurjiston axlida salbiy fikrlarning ko'payishiga, noroziliklarning kuchayishiga ham olib kelgan. Lekin nima bo'lganda ham Jaloliddin Manguberdi uzining asosiy maqsadi Mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashish ekanligini yodida sakladi. Bu kurashda u yon-atrofdagi musulmon hukmdorlarining kullab-quvvatlashlariga umid boglagan edi. Lekin ko'p xodda ular bilan umumiy til topa olmasligi, uning tashqi siyosat borasidagi zaif tomonidan dalolat berar edi. Uz vaqtida turk arab, musulmon xoqimlari uning hokimiyati Yaqin Sharqda kuchayib ketishidan xavfsirashar, u bilan ittifoq tuzishni xoxlashmas edi. Ularning ba'zilari xatto Mo'g'ullar bilan ochikdan-ochik yaqinlashish tarafdori edilar. Ayniqsa, Xilat kal'asining Jaloliddin tomonidan egallanishi unga da'vogar xokimlarning izzat-nafsini toptagan edi. Jaloliddin unga qarshi ittifoq vujudga kelganidan xabardor bo'lsa-da, har holda, hech bo'lmaganda uni turkiy hukmdorlar qo'llaydi deb yanglishgan edi.

1230 yil 10 avgustida Kuniya sultoni, Xims Xoqimi, Xalab xokimi, Mayafirikin xoqimi va Baynas xoqimlarining birlashgan ittifoqi Jaloliddinni maglub etadi. Ismoililar esa butkul xoinlik yo'lini to'tib Jaloliddinning maglubiyati to'g'risida Mo'g'ullarga yashirin noma ham yuboradilar.

Jaloliddin maglubiyatidan foydalangan Mo'g'ullar uning Ozarbayjonning Mugon, Shirkabutdagi qo'shin yirishi mumkin bo'lgan joylariga kukkidan zarba berishadi. 1231 yil bahorida u Ganjaga kelib, barcha gina-kuduratlarini uno'tib, yana Mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin uning taklifi javobsiz kolib ketdi. Shunda Suriyadagi Amida kal'asi xoqimi uni uz oldiga chorlaydi. U Irokka borib yana qo'shin tuplamokchi bo'ladi.

Amida yo'li yaqinida unga tusatdan Mo'g'ullar xujum qilishadi (1231 yil avgust boshi). Uni 15 chorli Mo'g'ul navkarlari ta'kib etishadi. Jaloliddin uz sheriklaridan ajrab, Mayagrariqin (hozirgi Turkiyaning Silvan viloyati) yaqinida Ayn-ad-dar qishlog'iga keladi. Ushbu torlik qishloqda u kurdlar kuliga tushadi. Uzini sulton deb tanishtirgandan so'ng uni kurdlar uldirishga jazm etmaydilar. Uni tegishli joyga etqazib kuyish evaziga mukofot va'da qiladi. Lekin kurdlar rahbari

xonadonidan joy olgan xorib-tolgan Jaloliddinni, boshqa bir kurd kishisi ulgan inisi xuni evaziga uldiradi. Bu voqea taxminan 1231 yilning avgust oyi 17-20-sanalari oraligida ruy beradi.

Ertasi kuni sulton buyumlarini sotib yurgan kurd xususida Mayagrariqin hukmdori al-Malik al-Muzaffarga xabar berishganda, u qishloqda uz sarkardasi Shaxobiddin Goziyni yuboradi. Shaxobiddin Goziy sulton jasadini olib, qishloq erkaklari barini uldiradi va qishloqqa ut kuyib yuboradi. Muarrix an-Nasaviy buni eshitib shaxsan Mayagrariqinga keladi. Jaloliddinning tog'asi, vazir Uturxon uning jasadini tanib, kattik iztirobga tushadi. Jaloliddin Manguberdi murdasi Mayagrariqinga dafn etilib, Mo'g'ullar kirib kelgudek bo'lsa, xakoratlanmasin degan maqsadda guri er bilan tekislab yuboriladi. Uning ashaddiy dushmani Damashk xoqimi al-Malik al-Ashrafga sulton xalokati xususida xabar etqazib suyunchi suraganlarida, u kayguga botib: «Sizlar uning ulimi bilan meni kuglamokchimisizlar? Ammo siz voqeaning achchigini tatib kurasizlar. Ollox nomi bilan kasam ichamanki, uning xalokati islom olamiga Mo'g'ullarning bostirib kirishini anglatadi. Endilikda biz bilan Ya'juj va Ma'jujlar o'rtasida devor bo'lib turgan Xorazmshoxdek odam yo'qdir», -deb javob bergan edi. Ibn Vosil esa uni «Mo'g'ullar va musulmonlar orasidan istexkom bo'lgan» deb ta'riflagan edi. Jaloliddinning ulimidan so'ng uning shonli nomi tez orada xalqlar tilida doston bo'lib ketdi.

«Jaloliddin tirik», «Jaloliddin kaytib kelayapti» degan ovozarlar uzoq vaqtgacha Mo'g'ullarni taxlikaga solib kelgan. Uzini «men Jaloliddinman», deb nomlagan turli shaxslar Mo'g'ullarga qarshi ko'p holatda isyon va kuzgolonlarga boshchilik qilganlar (masalan, 1236 yili Eronning Ustundorida ko'tarilgan kuzgolon, 1255 yili Amudaryo buyidagi voqealar va xokazo).

Musulmon tarixchilari uz asarlarida hamisha uni mard va jasur sarkarda sifatida ta'riflashgan edi. Jaloliddin Manguberдини shaxsan bilgan al-Nasaviy u to'g'risida shunday ta'rif bergan edi.

«U turkiy bo'lib, kora magiz yuzli, bo'rni oldida kora holi bor o'rta buyli yigit edi. Fors tilida ham bemalol suzlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo'q sherlar ichida arslon, otliklar ichida eng jasuri edi... Kiska suzli, hech qachon sukinmagan, yomon suzlarni uziga ep kurmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida uzini sipo tutar, hech qachon kulmas faqatgina tabassum qilib kuyar edi holos. U adolatni sevgan, lekin zamon zayli uni o'zgartirishga majbur qilgan. U uz fukarolarining dardini engillashtirishga harakat qilgan, shuni xoxlagan, lekin tanazzul davri bo'lganligi bois ham zo'ravonlikka yo'l bergan. Uzini ulug'lashlarini istamagan. Bachkana ta'riflarni yoktirmagan, faqat sulton deya murojaat qilishlarini suragan. Uning farmonlarida yolgiz suz: «Yordam yolgiz Olloxdandir!» degan shior bo'lgan. Xorazmshoxlar avlodidan bo'lgan Misr xoqimi al Muzaffar Sayfiddin Kutuz ajdodlarning shonli kurash yo'lini davom ettirib, 1260 yili Yaqin Sharqdagi Ayn Jalut yonida Mo'g'ullarga kaQShatkich zarba berib, ularning Suriya va Misrga kirib kelishlariga chek kuyadi.

1999 yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligining keng nishonlanishi, uning vatani Xorazmda unga maxobatli haykal urnatilinishi,

yurtboshimiz ta'kidlaganidek «Ganim oldida bosh egmagan, tiz chukmagan. Vatan deya xalok bo'lgan» milliy qahramonimizga xalqimizning ehtiromi, muxabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi.

Mo'g'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chigatoy ulusi davridagi ijtimoiy-iktisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvoli Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch, Xujand, Marv, Termiz, Balx Nishopur va boshqa shaharlar harobazorga aylantirildi. Marvdagi mashxur suv bilan shaharni ta'minlovchi-Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand shaxrini suv bilan ta'minlaydigan yagona to'g'onlarning hammasi Chingizxon buyrugiga kura buzib tashlandi.

Jumladan Balx va uning atroflari 6 oy mobaynida suv ofatini boshdan kechiradi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko'pchiligi, Urganch va Marv kabi ulkan shaharlar axlining ona shaharlarini yo tark etdilar yoki kirib tashlandilar. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me'morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik tijorat, sugorma dehqonchilikni shu o'lkaga kelib kurdilar. Bosqindan so'ng Sharqda dongi ketgan zargarlik qurol-aslaxa yasash, nafis matolar tukish, nAQShikor nimchalar tikish barham topdi. Vohalarda suvsizlikdan erlar kakrab dehqonchilikka kiron keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan mashxur ipak savdo yo'llari izdan chikdi. Ilm-fan, madaniyat namoyandalari xor-zor etildi. Tirik qolgan aholi vayronalarga zulm va zo'ravonlikka, ochlik va kashshoklikka maxkum etildi. Chingizxon tiriklik vaqtidayok uz ugillariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi. 1207 yiddayok katta ugil ilkiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo'lgan erlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon ulimi arafasida (1227 yil avgust) esa boshqa ugillariga ham turli zabt etilgan erlarni ulus etib bo'lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo'lgan erlar Juchiga, Oltoy tog'larining janubiy sarxadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan erlar ikkinchi og'il Chigatoyga, Xitoy va Mo'g'uliston voris bulmish uchinchi ugil Ugedeyga, Eron va Xuroson Tuliga ulus tarzida bo'lib berildi.

Rashididdinning ma'lumotiga kura, Chingizxon vafotidan so'ng Chiratoyga 4000 ga askar tekkan ekan, Ularning boshlikdari uz navbatida barlos, jaloyir, Kovchin va orlot qabilalaridan bo'lgan. Ibn Arabshoxning yozishicha kovchinlar Amudaryo shimoli Buxoroning sharqni tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg'oniston shimolida joylashgan ekanlar. Keyinchalik Maxmud Yalavoch ham uz siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish kurar edi. Mo'g'ullar kuchmanchi xalq bo'lgani uchun boshqaruv tizimini tushunmas edilar. Chingizxon tiriklik vaqtidayok xorazmlik taniqli savdogar, Mo'g'ullar xizmatida anchadan beri faoliyat kursatayotgan Maxmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orala Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning karorgoxi esa Xujand shaxrida joylashadi.

Shubxasiz, Maxmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo'lib, manbalarning xabariga kura, uning boyligi shunchalik bo'lganki, xatto u bugun

Movarounnahrda olinadigan solikni oldindan tulashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida Mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan solik yiguvchi Mo'g'ul boskrklari, mahalliy xoqimlar, dorugalar-harbiy ma'murlar hamda bir muncha Mo'g'ul harbiy otryadlari bor edi.

Maxmud Yalavochga soliklar tushumini muntazam nazorat etish o'lkada Mo'g'ullarga qarshi galayon bo'lishining oldini olish mas'uliyati yuklatilgan edi. Ko'pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham uz jonlari va qolgan mol-mulklarini saklab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga uta boshladilar.

Uz navbatida o'lkada uzlarining tayanch vositasi bo'lishlariga harakat qilgan Mo'g'ullar ham bu toifadagi kishilarni kullab-quvvatlay boshladilar. Mo'g'ul xonlari (viloyat xoqimlari xon, oliy hukmdor esa koon yoki hoqon, deb yuritilgan) va mahalliy zodagon, er egalarning zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshlandi. Ulponu soliklarning miqdori tobora oshib bordi, undan tashqari esa aholidan yigib olinadigan turli tulovu yugimlar, jarimalarning soni xadkan tashqari oshib keta boshladi. Yangi er soligining nomi-«kalon» deyilib, u xosilning undan bir miqdorida olingan. 1235 yilgi kurultoydan so'ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi solik-«kopchur» ta'sis etilgan. Unga kura 100 tadan bir miqdorda chorva solikka tulanar edi. (Bu solik asosan Mo'g'ullar turmush tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgan edi). «Yasoq»ka kura davlat xazinasini uchun «shulen» deb nom olgan ozik-ovqat soligi joriy qilingan. Bu solikka kura har bir podadan ikki yashar kuy, kimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliklar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun undirilib, so'ngra aholidan zo'ravonlik bilan oshirilgan miqdorda undirilar edi. Ayniqsa, xunarmandlarning ahvoli ogir bo'lgan, ularning uz yurtlarida tirik qolganlari mahalliy xonlarning mulki sifatida ishlatilinar edi. Masalan, 1262 yil Buxoroda bo'lgan Xubilay koonning vakili bu erda 5000 ta xunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika Siyurkukteniga (Xubilay va MunkalaRning onasi) tegishli bo'lganligini qayd etadi. 1246 yil Mo'g'ulistonda bo'lgan sayyox Plano Karpini eng yaxshi xunarmandlar hoqon xizmatida ekanligini va ularga kullarcha munosabatda bo'lishlarini qayd etib o'tadi. Bu guruh shaharlik xunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga darhaqiqat kullarcha munosabatda bulingan bo'lsa, ikkinchi guruh shaharlik xunarmandlarga esa katta soliklar solingan.

Mo'g'ullarga qarashli bo'lgan harbiy qurol-aslaxa va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar-«korxonalar» nomini olgan bo'lib, u erdagi xunarmandlar esa kul darajasidagi kishilar hisoblanar edi. Xunarmandlar tulaydigan maxsus solikning nomi «tamga» deb atalgan. Mo'g'ullar shuningdek batamom huquqsiz kullar mehnatidan ham foydalanishar edi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida er egaligi holati ham uzgarib, yangi in'om etilgan erlar Mo'g'ulcha suyurgol nomini olgan. Suyurgol hajmi jihatidan (unig tarkibiga juda katta er maydonlari, suv xavzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketar edi) ikta'dan farq kilar edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy erlar), vakf (diniy idoralar ixtiyoridagi erlar) erlarda ko'p

holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qism ijarador-o'rtahol dehqonlar esa muzariylar deb yuritilgan.

Buyuk Hoqon hisoblangan Ugedey (1229-1241 yy.) davridayok murullar uzlariga xizmat kursatayotgan ayrim kishilar, katta er egalari savdogalarga turli yorlik va payzalar bera boshladilar. Payza kimmatbaho metall (oltin, kumush) yoki jez, yoroch taxtalardan ishlangan bo'lib unga nuyonning muxri kuyilar edi. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar shu jumladan elchilar, solik yiruvchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yigim, tulovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Ko'plab beriladigan payza egalari aholidan tekinga ot-ulov, em-xashak yotar-joy, ozik-ovqat talab qilishga xakli ham edi. Savdo yo'llarida joylashgan bekatlar «em» (jom) deyilib, ularning xizmati va harajati mahalliy aholi buynida edi. Bu bekatlar bo'ylab davlat ishlari bo'yicha ko'plab elchi, chopar, vakil va boshqalar o'tib, ularga xalq tekinga xizmat qilib ularni ta'minlab turishi ham lozim edi. 1235 yildan boshlab hoqon farmoniga kura har bir yomdan aloqa xizmati va harakati 2 ta tuman aholisiga yo'qlatiddi. «Yomlar buyidagi aholida tokat va majol ham kolmagan edi»,- deb yozgan edi Rashididdin.

Mahalliy aholi-xunarmand, dehqon, chorvador, kim bo'lishidan kat'i nazar umumxashar ishlarida katnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Mo'g'ullarning ichki xo'jalik savdo-sotiq sohasini bir oz jonlantirish borasidagi chiqargan past kiymati tangalari aholi ichida uz o'rnini topmadi. Aksincha, zuglik pupisaga qaramay 1232 yildan boshlab Samarqandda pul muomalasi tugatildi, savdo-sotiq ayirboshlov darajasiga tushib qoldi. Farg'ona, Shosh, Termiz va boshqa viloyatlaoda Mo'g'ul istilosidan so'ng pul zarb etish uz-uzidan tugagan edi. Natijada tez orada Movarounnahrda pul muomalasi izdan chikdi.

Mislsiz jabr zulm, aholining xuglik va kashshoklik domiga tashlanishi, soliklarning xaddan ziyod usishi, mehnatkash aholining tinka madorini kuritib yubordi. Aholi ichida Mo'g'ullarning zuravonligi va istibdodiga qarshi norozilik harakati tobora kuchayib, bu norozilik ayniqsa, 1238 yilgi Maxmud Tarobiy kuzgolonida uz aksini namoyon qildi. Bu ozodlik kuzgoloni 1238 yil Buxorodan uch farsax (taxminan 18-21 km) uzoqlikdagi Torob qishlog'ida boshlandi. Bu kuzgolonda Mo'g'ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli ogirlashgan xunarmand, dehqon va kambagal aholi ayniqsa faol katnashadi. Kuzgolonga esa asli Torob qishlog'idan bo'lgan galvir yasovchi xunarmand usta Maxmud Tarobiy boshchilik qiladi.

Maxmud Tarobiy avval uz qishlog'ida istilochilar zulmi, bedodligiga qarshi otashin chakiriklar bilan chikadi. Uz atrofiga yigilgan kuzgolonchilarga murojaat etib: «Ey xak toliblari, qachongacha kutamiz va intizorlik tortamiz. Ruyi zaminni tangridan kurkmaydiganlardan pok kilmok lozim. Kimning qanday qurolga kurbi etsa, kilichmi, uk-yoymi, kaltakmi, kulga olsin. Kuldan kelganacha tangridan kurkmaydiganlardan birontasini ham tirik kuy-maslik lozim»,-degan suzlar ozodlik kurashiga xalqni da'vat etadi. Shu paytda Sherozdan kelgan harbiy anjomlar ortilgan karvon kuzgolonchilarning qurollanishiga yordam beradi. Kuzgolon kuch-qudrati oshib borayotganligining, xalq kuzgolonchilar tarafiga o'tib borayotganligini kurgan Mo'g'ul nuyonlari Movarounnahr xoqimi Maxmud



Yalavochdan yordam surashga majbur bo'ladilar. Maxmud Tarobiy uzining ko'plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo'l oladi. Buxorolik akoid (diniy ilm) olimi, mashxur shayx Shamsiddin Maxbubiy ham kuliga qurol olib, uz safdoshlari bilan kuzgolonchilar safiga kushiladi. Tarixchi Juvayniy Maxmud Tarobiy haqida shunday deb yozgan edi «u akobir, boy-badavlat kishilarni xaKorat qildi, sharmandasini chiqardi, uldirtirdi, ularning bir qismi esa undan kuchib kutuldi. U oldiy xalqqa va darbadarlarga aksincha iltifot va marhamat ko'rsatdi». Darhaqiqat, Maxmud Tarobiy Buxoro axliga muruvvat namunalarini ko'rsatdi. Buxorodan kochgan Mo'g'ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panox topgan edilar. Bu erda ular ma'lum kuch tuplab, Maxmud Tarobiy ustiga harbiy yurishni boshlaydilar. Bundan xabardor bo'lgan Maxmud Tarobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo'liga katta harbiy kuch bilan chikadi. Ikki O'rtadagi kattik jangdan so'ng istilochilar engilib orkaga chekindilar. Kuzgolonchilar Mo'g'ullarni to Karmanagacha kuvib bordilar. Ushbu jangda Mo'g'ullarning 10000 ta kishisi kirib tashlandi. Lekin bu zagrarli jangda kuzgolonchilar rahbarlari Maxmud Tarobiy va Shamsiddin Maxbubiylar xalok bo'ldilar. Kuzgolonchilar endilikda shaxid ketgan Maxmud Tarobiyning o'rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylaydilar. Lekin bu yangi rahbarlarning harbiy tajribalari yo'q xalq ularni yaxshi tanimas, omma ichida ular nufuzga ega emas edilar. Bu esa kuzgolonning borishiga salbiy ta'sir utkazdi. Oradan bir xafta utmay Mo'g'ullarning Elduz nuyon va Charan kurchi boshchiligidagi yangi qo'shini kuzgoloni bostirish uchun etib keldi. Ikki tomonlama jangda Maxmud Tarobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan oshik jangchi xalok budki. Maxmud Tarobiy boshchiligidagi ushbu xalq ozodlik kuzgoloni xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida uziga xos iz qoldirdi. U avvalo istilochilar va ular tomoniga o'tib ketgan mahalliy zodagonlarning umumiy zulmiga qarshi ko'tarilgan kurash edi. Bu ozodlik kuzgoloni Mo'g'ul istilochilariga ular qanchalik shavkatsiz tuzum urnatmasinlar xalq hamisha uz ona vatani ozodligi yo'lida kurashdan chuchimasligini namoyon qildi. Mo'g'ullar bu kuzgolondan so'ng bos koklar tomonidan yigiladigan solik va ulponlarni tartibga keltirishga harakat qildilar. Maxmud Tarobiy kuzgolonidan keyin Chigatoy kuzgoloni bostirishda sustkashlik qilgan degan maqsadda Maxmud Yalavochni uz amalidan chetlashtirib, uni Movarounnahrda chiqartirib yubordi. Tez orada hoqon uni Dasin (Pekin)ga shahar noibi etib junatadi. Shundan so'ng Movarounnahr noibi hamda ijaradori sifatida Maxmud Yalavochning ugli Ma'sudbek tayin etiladi. U ulimiga qadar (1289 y) shu lavozimni egallab turadi. XIII asrning ikkinchi choraklaridan boshlab, Mo'g'ullarning ichida ham endilikda ma'lum siyosiy nizolar, parokandaliklar kelib chika boshlaydi. 1241 yilga kelib bosib olingan Rusiya, Volga buyi, Ural va boshqa erlardan Oltin Urda davlati tashkil topadi. Mo'g'ullar 1256 yili Xulagu boshchiligida Eron, Kurdiston, Irok va Yaqin Sharqning boshqa erlariga fokum qiladilar. Mo'g'ul xonlari o'rtasida oliy hukmdorlik uchun kurash avj oladi. Ayniqsa buyuk hoqon Guyo'qxonning (1246-1249) ulimidan so'ng bu kurash keskin kuchayadi. 1251 yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning kullab-quvvatlashlari bilan Tulining tungich ugli

Munka (1251-1259) ulug' xon sifatida saylanadi. U dastlab Chigatoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni Botuxon bilan bo'lib oladi. Keyinchalik Munkaning ulimidan so'ng Chigatoyning nevarasi Olguxon (1261-1266) Oltin Urdaga qarshi kurashib, Chiratoyni ulusini kayta tiklashga muvaffaq bo'ladi.

XIII asrning 60-70-yillariga kelib, rasman yagona hisoblangan murul imperiyasi aslida Erondagi Xulagiylar, Movarounnahrda Chikatoylar, Oltin Urda deyarli mustakil qismlarga bulinib ketgan edi. Har bir ulus xoni uzini tamomila mustakil sanab, payt kelganda kushni uluslarga ulja uchun xujum ham qilib turar edilar. Masalan, 1272 yili Xulagiylarning Okbek boshchiligidagi askarlari Kesh va Naxshab shaharlarini, 1273 yil yanvarida Buxoroni talon-taroj etadilar. Buxoro daxshatli kirgin-barotni boshdan kechirib, etti yil gacha vayrona tarzda yotadi. Mo'g'ullar to'g'risida suz ketganda yana bir muhim xususiyatni e'tiborga olmoq kerak bo'ladi. Bosib olingan erlarda Mo'g'ul harbiy sarkardalari, nuyonlari, zodagonlari orasida siyosiy dunyoqarash uzgara boshlaydi.

Ba'zi nuyon, xonlar, harbiy ma'murlarning kichik qismi, ularga ergashgan mahalliy zodagonlar, savdogarlar, diniy ulamolar va boshqalar o'troq hayotga o'tish, markaziy hokimiyatni kuchaytirib, savdo-sotiqni rivojlantirish tarafdorlari edi. Dehqonchilik va savdo-sotiq xazinaning asosiy manbai bo'lishi mumkin edi. Buning uchun esa shahar va qishloqlarni tiklash, ekinzorlarni o'zaro payxon etishga chek kuyish, soliklarni tartibga tushirish, shaharlar rivoji, savdo, hunarmandchilikka xomiylik qilish darkor edi.

Yuqorida ta'kidlangan madaniylashish tarafdorlari safiga Munkaxon (1251-1259) va Chigatoy noibi, hoqonning yaqin maslaxatchisi Ma'sudbek (1238-1289) ham kirar edilar. Munkaxon shubxasiz tadbirli va zexnli Movarounnahr noibi Ma'sudbekning ta'siri ostida ba'zi bir ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi.

Butun Mo'g'ullar imperiyasida soliklar bir xil tarzda undirilmas edi. Masalan, Xitoyning shimoli, Movarounnahrda badavlat kishi 10 dinor, kambagal 1 dinor tular edi, Xurosonda badavlat kishi 7 dinor, kambagal esa 1 dinor tular edi va xokazo. Munkaxon solik va xashar ishlarini tartibga solish borasida maxsus farmon-yorlik chiqardi. Unga kura Chingizxon ulimidan so'ng berilgan payza va yorliklar bekor etildi, yomlar bo'ylab aloqa vositasi uchun ajratiladigan otlar soni belgilanib, aholidan ortikcha ot-ulov talab etish, yomlar uchun belgilangan otlarda shaxsiy maqsadda foydalanish ta'kiklab kuyildi. Munkaxonning qonunlashtirib kuygan chora-tadbirlari aholini behisob solik va yiginlardan ozod etib, ularning tinchlik-osoyishtaligini bir muncha ta'minladi, shahar hayotining, ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga qisman imkon yaratib berdi. Bu islohotlar natijasida mamlakatning ayniqsa, shimoliy-sharqiy tumanlari, jumladan, Farg'ona vodiysida xo'jalik iqtisodiy hayotda jonlanish sodir bula boshlaydi.

Ayniqsa xo'jalik-iqtisodiy hayotni bir me'yorga tushirish, savdo va pul muomalasini izga solishda Chigatoy ulusi noibi Ma'sudbekning xizmati va islohotlari katta o'rin tutgan. Ma'sudbek Mo'g'ul koonlariga shaxsan yaqinligi ham uning islohotlar utkazilishga imkon ham bergan edi. 1271 yili Mo'g'ullarning madaniy, ukrok hayot tarafdorlari madadi, Talas kurultoyi (1269 y) qarorlariga tayanib, Ma'sudbek yangi pul (moliyaviy) islohoti utqazishga kirishdi. Unga kura

har qanday shaxs uziga kerakli tangalarni zarbxonalarga olib borib, uni xoxlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat, vaznda zarb etish mumkin edi. Avval boshida kiyinchilik bilan kechgan bu jarayon XIII asrning 80-yillariga kelgandagina faollasha bordi. Tez orada 16 ta yirik shahar va viloyatlarida bir xil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi. Garchi atrofdagi islohotlarga qarshi Mo'g'ul harbiylari Erondan, Ettisuvdan Movarounnahrqa vayronagarchilik keltirib chiqaruvchi kurashlarni amalga oshirib tursalarda, lekin islohotlar borishiga tuskilik kila olmadilar. Ma'sudbek 1273-1276 yillari kayta talangan Buxoroning tiklanishiga uzi bosh-kosh bo'ldi. 1282-83 yillarda Buxorodagi zarbxonalar tulakonli ishlashga kirishdi. Savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlanib borayotgan Farg'ona vodiysida esa Chiratoy xoni Duvaxon (1291-1306) davrida Andijon shaxriga ham asos solinki.

XIV asrning birinchi yarimiga kelib, Chigatoy ulusida Mo'g'ullarning o'troqlashuv jarayoni kuchayib, Mo'g'ul zodagonlarining katta qismi savdo doiralari bilan yaqinlashib, islom madaniyati ta'siriga berilishi kuchayib bordi. Movarounnahr madaniy o'lkasi bilan yaqin aloqa urnatib, o'troq hayot kechirishga intilgan Chigatoy xonlaridan biri bu Kebekxon (1309, 1318-1326) bo'ldi. U butunlay Movarounnahrqa kuchib kelib uz karorgoxini Nasaf shaxri yonida barpo etdi. Keyinchalik bu saroy O'rnida yangi Qarshi shaxri yuzaga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, uning ma'muriy tuzilishini kayta tashkil etish, iqtisodiy hayotni tartibga solish Maqsadida 2 xil ma'muriy va moliyaviy islohot utkazdi. Ma'muriy islohotga kura mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Mahalliy xoqimlar-maliklar, sadrlarning o'rinlari turkiy-Mo'g'ul urug' boshliklari kuliga utdi. Noiblik esa merosiy bo'lib qoldi. Bu islohot davlatni birmuncha mustahkamlashda uzining ijobiy samarasini berdi. Ma'sudbek davrida pul islohoti amalga oshirilgan bo'lsada, Kebekxon uni takomillashtirmokchi bo'ldi. Jumladan u Xulagiylar va Oltin Urda tangalari namunasida 2 xil pul: yirik kumush tanga «dinor» va mayda kumush tanga «dirham» lar zarb ettiradi.

Dinor (2 miskol, 8 gr. atroflarida) 6 ta dirhamdan iborat bo'lib qoldi. Kebek nomidan tangalar asosan Buxoro va Samarqandda zarb etilar edi. Shuningdek Utror zarbxonasi ham faol ishlay boshladi. Kebekxonning islohotlari anchadan beri o'troq hayot, mahalliy aholi madaniyati bilan yaqinlashuviga qarshi bo'lgan guruhlarning ham faoliyatini kuchaytirib yuboradi. Kebekxonning ukasi Oloviddin Tarmashirin (1326-1334) akasining siyosatini davom ettirib, o'troq hayot an'alarini kattik turib himoya qiladi. U islom dinini qabul qilib, islom dinini Chiratoy ulusining rasmiy diniga aylantiradi. Tarmashirin siyosatidan norozi kuchmanchi Mo'g'ul zodagonlari isyon kutarib 1334 yilda uni uldirishadi. Tarmashirindan so'ng hokimiyat tepasida bo'lgan Changshi (1334), Buzan (1334-1338), Eson-Temur (1338-1342), Muhammad (1342-1343)lar davrida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida sezilarli o'zgarishlar bo'lganligi yo'q. Aksincha mahalliy qabilalar hokimiyati, urug' boshliklarining ta'siri bu paytga kelib yanada kuchayib, Chigatoy hokimiyatining qudrati pasaya boshlaydi. XIV asrning 40-yillariga kelib, Ettisuvda Duglot amirligining yuzaga kelishi, amalda Chigatoy ulusining tarkab ketishidan, o'rniga Movarounnahr

amirligi yuzaga kelganligidan dalolat berar edi. Chigatoy xonlarining so'nggi vakillaridan biri Kozonxon (1343-1346) markaziy xon hokimiyati kuch-qudratining ta'sirini kutarib, ichki siyosatda Kebekxon Tarmashirin yo'lini tutishga harakat qildi. U kuchmanchi harbiylarga qarshi kurash olib borib Qashqadaryo vohasida xatto ularga qarshi tayanch markazi etib-Zanjirsaroy kal'asini ham barpo etgan edi. Kozogon boshchiligidagi bir guruh kuchmanchi, talonchilik siyosati tarafdorlari 1346 yili fitna natijasida Kozonxonni uldirishga muvaffaq bo'lishadi. Kozogon uziga amir unvonini olib, davlat boshqaruvini uz kuliga oldi. Movarounnahr Kozogon davridayok bir necha yarim mustakil qismlarga bulinib ketgan edi. Mamlakatda siyosiy tarkoklik avj olib, o'zaro nizolar yanada kuchaygan edi. Kesh (Shaxrisabz) atrofidagi erlar xoji Barlos boshchiligidagi barlos urug'i, Xujand Boyazid Jaloyiriyga karam bo'lib qoldi, Balx va uning atrofidagi erlar Kozogonning nevarasi amir Xusayinga tobe bo'ldi, Shiburgon esa Muhammadxuja Apverdi kullariga o'tib ketdi. Bundan tashqari, Buxoroda diniy ulamolardan iborat-sadrlar, Xuttalonda mahalliy xoqimlardan bo'lishi Kayxusrav, Termizda-sayidlar, Badaxshonda uzboshimcha mahalliy shoxlar hokimiyatni kulga olishdi.

### **XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asr birinchi yarmidagi madaniy hayot**

XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asr birinchi yarmida xo'jalik iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, kolaversa, Chigatoy Mo'g'ullarining tobora o'troq hayotga moslasha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik yo'lga kuyila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolar va dunyoviy zodagonlar, goxida Mo'g'ul zodagonlarining ba'zilari kurilish ishlariga xomiylik kila boshlashdi. Me'morchilikda alohida o'rin tutgan ganchkorlik g'isht uymakorligi, koshinpazlik me'moriy xattotlik kayta tiklandi. Movarounnahr, Xorazmda mahalliy binokorlar ishtirokida xonako, makbara, masjid, madrasa, saroy, minoralar kad kutara boshladi. Shu davrlarda barpo etilgan ko'pgina me'moriy obidalar u yoki bu ko'rinishda hozirgi kunlargacha etib kelgan. Buxorodagi Sayfiddin Boharziy makbarasini birinchilardan barpo etilgan me'moriy bino sifatida kurish mumkin. Taniqli buxorolik shayx Sayfiddin Boharziy nufuzli diniy ulamolardan biri bo'lib, u 1258 yili olamdan o'tgan edi. Uning kabri ustida tez orada katta makbara va xonako barpo etildi. 1333 yili Buxoroda bo'lgan arab sayyoxi ibn Batuta ushbu makbaraga yuqori baho bergan edi. Shuningdek mana shu davrlarda barpo etilgan Buxorodagi Kusam ibn Abbos makbarasi ziyoratxonasi, Xuja axmad makbarasi, kuxna Urganchdagi Najmiddin Kubro va Turabekxonim makbarasi, masjid va 2 ta baland minoralar (minoraning hozirgacha saklangan qismi 62 metrni tashkil etadi, minoralarning bittasi XX asr boshlarida kulab tushgan), Xujanddagi Duvaxon makbarasi (keyinchalik vayron bo'lgan) va boiShalarni tilga olib o'tish mumkin. Qarshidagi buzilib ketgan saroy, Ma'sudbek hukmro-shigi davrida (1238-1289)

Buxoroda barpo etilib, 1000 tacha talabaga muljallangan «Ma'sudiya», «Xoniya» madrasalari va boshqalar to'g'risida manbalarda ma'lumot berib o'tiladi.

Kurilayotgan davr binokorligi va me'morchiligida pishik g'isht, koshin, parchin, me'moriy uymakor kishtlar hamda ganch va oxak pista ko'mir, kumlardan tayyorlangan maxsus korishmalar kabi kurilish mahsulotlaridan binolarni kurishda hamda ularni me'moriy jihatdan bezashda keng foydalaniladi. Monumental binolarning aksariyati esa bir yoki ikki gumbazli, toku ravokli va peshtokli bo'lgan. Naqo'shinkor g'isht, koshinlar, kitoba (lavxa) bilan naqsh berish an'analari davom ettirilgan. Shuningdek naqshlarning turli-tuman, guldor bo'lishi, Uymakor amaliy san'at kayta tiklanganligidan ham darak berar edi. Kulolchilik misgarlik zargarlikda ham naqsh bilan ishlov berish holati avj oladi.

Shubxasiz, Chingiz Urdalarining bosqini Movarounnahr va Xuroson ilm fan, adabiyot o'choqlariga katta zarba bo'lib tushadi. XIII asr XIV asr oxirlariga qadar Mo'g'ullar kadami etmagan yoxud ularning ta'siri kam bo'lgan Dexli sultonligi, janubiy Eron, Kichik Osiyo, qisman Suriya va Misrda ilm-fan, ma'rifat, adabiyot taraqqiy eta boshlagan edi. Faqatgina XIV asr oxiri-XV asr boshlariga kelibgina ma'rifat, madaniyat o'choqlari yana Movarounnahr va Xurosonga kuchadi.

XIII asr-XIV asrning ikkinchi yarimida fors-tojik adabiyotida ayniqsa, Jaloliddin Rumiy (1207-1272), muslixiddin Sa'diy Sheroziy (1219-1293), Amir Xusrav Dexlaviylarning (1253-1325) o'rni va mavkei kutarilib, ular jahon adabiyoti olamiga taniladilar. Asli Balx shaxridan bo'lgan Rumiy 14 yoshligida uz oilasi bilan Mo'g'ul bosqinidan Kichik Osiyoning Kuniya sultonligiga borib qoladi. Kuniya, Xalab, Damashkda taxsil olib, buyuk tasavvuf ilmi shoiri va faylasufi bo'lib taniladi. U she'riyatda sufiy-falsafiy janrni rivojlantirib, uzining 36 ming baytdan iborat «Masnaviyi-ma'naviy» degan dostonini yaratadi. Sa'diy esa islom olamida uzining «Guliston» va «Buston» asarlari, razallari, ahloqiy fikrlari bilan keng shuxrat kozonadi. Uning asarlarida ona-Vatanga muxabbat, insonparvarlik mexr-muxabbat g'oyalari hamisha bark urib turadi. U uz asarlarida klshilarni o'zaro hamjihatlik va totuvlikka, hukmdorlarni adolat va insofga chakirib, salbiy xususiyatlarni koralab chikadi. Sa'diy uz umrini ona shaxri Sherozda tugatgan.

Xusrav Dexlaviy Hindiston shimoliga Mo'g'ul bosqinidan kochib borgan asli Kesh (Shaxrisabz)lik kishilar xonadonida dunyoga keladi. U Dexlida sulton saroyida yashab, uzining ajoyib «Hamsa» dostonini, Hindistonda hozirgacha mashxur «Xizraxon va Duvalra»ni, «Miftax al-futux» (Golibliq kaliti) «Nux sipexr» (Falakning tukviz gumbazi) kabi asarlarni yozadi. XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarixnavislik ham rivoj topa boshlaydi. Bu davrda asli Fyp viloyatidan bo'lgan Abu Umar Minxoijiddin Juzjoniyning 1260 yil yozil gan «Tabakoti Nosiriy» (Nosirga atalgan tabakalar), Oloviddin Ota Malik Juvayniyning «Tarixi jahongushaiy» (Jahon fotixi tarixi), Fayzullox Rashididkin Hamadoniyning «Jome at-tavorix» (Tarixlarningjamlanishi) Shaxrbiddin an-Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankbo'rni» (sulton Jaloliddin Mankbo'rning hayot faoliyati) kabi nodir tarixiy asarlari ham jahon yuzini kurdi. Bu manbalar uz vaqtida Mo'g'ullar istilosi va undan keyingi davrni o'rganish bobida birinchi darajali manbalar

hisoblanadi. Bu paytda shuningdek islom axlok-odob va takvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshladi. Xorazmdagi bu adabiyotning bir vakili mashxur faylasuf shoir va mutafakkir Paxlavon Maxmud (1247-1326) Hisoblanadi. U nafaqat shoir, mutafakkir bo'libgina kolmay, Hindiston, Sheroz, Rumda ham beli erga tegmagan kurashchi polvon ham edi. Xuddi shu ma'noda «Paxlavon» taxallusi unga xakli ravishda berilgan. Xalq ichida esa uni yana bexad saxovatli, bakrikeng, adolatli inson sifatida hurmati katta edi. U goliblikdan tushgan mukofotlarni etim-esir, nogironlarga xadya etar pustindo'zlik xunaridan kelgan daromadini atrofidagi kambagallar bilan baham kurar edi. Uz mablaq'idan xatto Xiva yaqinida makbara ham barpo etadi.

Uning mardligi, tantiligi, Xalqparvarligi to'g'risida bizning kunlarimizga qadar turli hikoyat, rivoyatlar ham etib kelgashshr. Uning insonga xos bo'lgan ajoyib fazilatlarni uluglovchi ruboiylari xalq orasida keng tarqalgan. U inson akli-zakovati, ahloqiy kamolati va ahloqiy pokligini kadrlaydi. Turkiy tilda ijod qilgan yana bir shaxs, bu nomi bizga xali yaxshi tanish bo'lmagan Nosiriddin Burxonuddin Rabguziydir. U XIII asr oxiri XIV asr boshlarida yashab, ijod qilgan. Bizgacha uning birgina «Kassam Rabguziy» (Kissasul anbiyo) asari etib kelgan. Bu asarda muallif uzini «Rabot uguzining kozisi Burxon ugli Nosiriddin» deb tanish tiradi. Ushbu asar islom dinini qabul kilgan Mo'g'ul beklaridan biri bo'lmish Nosiriddin Tukburaning iltimosiga kura xijriy 709 (milodiy 1309-1310) yilda yozilgan. Ushbu asar 72 qismdan iborat bo'lib, paygambarlar (Dovud, Sulaymon, Muhammad) haqidagi kissalar, diniy rivoyat va hikoyatlar, xalq ogzaki ijodi, tarixiy asarlar, diniy kitoblar asosida bayon etilgan diniy-falsafiy, tarixiy, ahloqiy asardir. Ushbu asar xalq orasida, bahshi va okinlar orasida hamisha mashxur bo'lib kelgan. Asarda bayon etilgan ahloqiy fazilatlar, ta'lim-tarbiya, ma'rifat xususida fikrlar hozirgi kunga qadar uzining dolzarb ahamiyatini yo'qotmagan. Bu paytga kelib turkiy adabiyot rivoji bilan bir qatorda, tasavvuf, din ilmlarining ham rivojlanishi kuzga tashlanadi. Tasavvuf ilmining mashxur namoyondasi, naqshbandiylik tariqatining asoschisi Bahovuddin NAQShband (Sayd Muhammad ibn Jaloliddin) (1318-1389) avvalo uz mehnati bilan Halol kun kurish g'oyasini yoklaydi. Uning «dil ba eru, dast ba kor» (ya'ni diling xudoda bulsinu, kuling mehnatda bulsin), degan shiori keyinchalik keng tarqaldi. Uning nomi xalq orasida ma'lum va mashxur bo'lib ketib, Buxoro yaqinidagi kabri musulmonlar ziyoratgoxlaridan biriga aylanib qolgan. Mustakillik inoyati bilan bu ajdodimizning nomlari kayta tiklanib, uning kabri joylashgan er obod va kurkam ziyoratgox tusini oldi.

## **TALABALAR BILIMINI TEKSHIRISH**



Talabalarning mavzu yuzasidan tushuncha va bilimni aniqlashda «**Blits-so'rov**» texnologiyasi imkoniyatidan foydalanish maqsadga muvofiq. Texnologiya talabalarga tushuntiriladi. Kichik guruhlar orasida fikriy musobaqa tashkil qilinadi. Ya'ni «Blits-so'rov» texnologiyasida berilgan savollarga javob berishdagi guruhlarning faolligiga qarab, ularga ball qo'yiladi. Ushbu o'quv topshirig'iga talabalar qisqa va aniq javob berishlari lozim.

1. Xorazmshohlar saltanatining mo'g'ul davlati bilan munosabati qanday edi?
2. Xorazmshohlar davlatidagi ichki ziddiyatlarni kuchayib borishi qanday oqibatlarga olib keldi?
3. CHingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning Movarounnahrni istilo qilishi haqida so'zlab bering.
4. Xorazmshohlar davlatining inqirozi sabablari nimada?
5. Jaloliddin Manguberdi jasorati haqida gapirib bering.
6. Mo'g'ullar istibdodidan qaysi shaharlar ko'proq zarar ko'rdi?
7. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni qachon va qanday boshlandi?
8. Mahmud Torobiy qo'zg'oloning ahamiyati nimada bo'ldi?
9. CHig'atoy ulusining vujudga kelishi va boshqaruvi haqida ma'lumot bering.
10. CHig'atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot qanday bo'lgan?

### ***Klaster usuli asosida talabalar bilimni tekshirish***

#### **Klaster (axborotni yoyish) usuli.**

1. Asosiy vazifasi – o'rganilayotgan ob'ekt – talabalar faoliyatini pedagogik voqelikni qismlarga ajratgan holda o'zlashtirishga yo'naltiradi, unda ko'p variantlilik asosida tushuncha hamda hodisalarning o'zaro ichki va tashqi bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantiradi, mavzu bo'yicha fikr-mulohazalarni erkinlashtirishga yordam beradi.
2. Mavzu bo'yicha klasterlarni tuzish o'quv maqsadiga qarab bosqichma-bosqich harakatlanishni taqazo etadi.
3. Usulni amalga oshirish uchun talabalarni kichik guruhlariga (3-5 ta) ajratish tavsiya etiladi. Har bir guruhda mavzuga oid alohida o'quv elementlari tanlab olinadi. Buning uchun esa, auditoriyada tegishlicha darslik, o'quv qo'llanmasi, ma'ruza matni va boshqa axborot manbalari (gazeta, jurnal, to'plamlar) bo'lishi talab etiladi. Har bir guruh uchun belgilab berilgan alohida o'quv elementlarini yoxud berilgan topshiriq maqsadlarini o'zlashtirish uchun 15-20 minut vaqt ajratilishi maqsadga muvofiq.

*Klaster usuli quyidagi bosqichlarda tuzilishi tavsiya etiladi:*

- a) Auditoriya yozuv taxtasiga kichik guruhlar soniga qarab, chizmachilik qog'oz (vatman) osiladi va «Kalit» so'zlar o'qituvchi va talabalar tomonidan yoziladi: mo'g'ul, Xorazmshoh, istilo, qo'zg'olon.
- b) Mavzu bo'yicha o'quv elementlariga tegishli fikrlar aniq fe'l bilan ifodalangan holda qog'ozga yoziladi.
- c) Asosiy tushuncha va g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik chizma orqali namoyon etiladi.
- d) Kichik guruhlardagi barcha talabalar o'z variantlarini qog'ozga yozadilar.
- e) Guruhlardagi ishlab chiqilgan fikrlar «shajara» si umumlashtiriladi.
- f) O'qituvchi talabalar faoliyatini nazorat qiladi va xolisona, ob'ektiv baholaydi.
- g) Har bir o'quv elementiga oid tushunchalar mazmunan ketma-ketlik saqlangan holda vatman qog'ozga yoziladi va fikrlar «yoyilmasi» chizmasi yaratiladi.

### **MUSTAQIL TA'LIM**



Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
  - maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;
  - talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bogliq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
  - faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

“O'zbekiston tarixi” fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, ma'ruza tayyorlash, boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish



mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakat qilinishi lozim.

**YOzma mustaqil topshiriqlar** – bunga muammoli vaziyatlarni hal etish uchun berilgan vazifalarni bajarish, ekskursiyalar vaqtida kuzatishlarni qayd etish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, seminarga oid manbalarni konspektlashtirish, tayanch iboralarga doir ijodiy ish, ilmiy maqolalar yozish kabi vazifalar kiradi.

**Sxema va jadvallar shaklidagi mustaqil topshiriqlar** – bunga turli chizma ishlari, sxemalar, diagrammalarni tuzish, krossvord, skonvordlar tuzish kabi vazifalar kiradi.

**Og'zaki mustaqil topshiriqlar** – bunga darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruza matni bo'yicha materialni o'rganish va takrorlash, chizmalar va sxemalarni o'qish, adabiyotlar, hujjatlar va materiallarni o'rganish asosida o'qituvchi savollariga javoblar tayyorlash, amaliy ishlar faoliyati tahlil kabilar kiradi.

## **MO'GULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA QARSHI KURASH. JALOLIDDIN MANGUBERDI – VATAN HIMOYACHISI. (2 SOAT)**

### **Amaliy mashg'ulotni texnologiya asosida o'tish.**

O'quv vaqti 2-soat.	Talabalar soni 15-20ta
O'quv mashg'uloti shakli.	Amaliy mashg'ulot -Bahs
Ish rejasi.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi.Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.</li> <li>2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari.Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi jasoratlari.</li> <li>3. Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni.</li> <li>4.Madaniy hayot. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumi, Burhoniddin Rabg'uziy, Bahouddin Naqshband.</li> </ol>
O'quv mashg'ulotining maqsadi.	Ushbu mavzu bo'yicha keng va chuqur bilim berish, o'z qarashlarini himoya qilish , aniq mo'ljal olishni , fikrlarni aniq bayon qilishni tashkil etish.
Pedagogik vazifalar: Mavzu bo'yicha bilimni teran mustaxkam egallash. Mustaqil ishni adabiyotlar qo'llab amalga oshirishni yo'lga qo'yish. O'z bilganlarini yaxshi bayon qilishga, aniq	Faoliyat natijasi: Mo'g'ullar istilosi arafasida Movaraunnaxr va Xorazmdagi ahvolni yoritib beriladi. Chingizxon va Xorazmshoh qo'shinlari o'rtasidagi farqni tahlil etib beriladi. O'rta Osiyoni mo'g'ullar istilo qilishini sabablari ko'rsatiladi. Mo'g'ullar istilosining borishi va zulmining

mo'ljalni bilishga xulosalar va umumlashtirishlar qilishga o'rganish. Guruhlar bilan ishlashni, o'zaro ilmiy munosabatlarni rivojlantirish.	mohiyati ko'rsatiladi. O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'ullarga qarshi qaxramonona kurashi haqida ta'rif beriladi Madaniy hayot haqida tushuncha beriladi. Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Rumi, Burhoniddin Rabg'uziy, Bahouddin Naqshband hayoti va faoliyati haqida bilimlar sinaladi.
O'qitishning texnikasi va uslubiyati	Birgalikda o'qish, Bahs, blits-so'rov, taqdimot va "Nima uchun" nomli grafik organayzer.
O'quv vositalari	O'quv qo'llanmasi, taqdimot uchun varaqlar, marker va boshqalar.
O'quv shakli	Frontal, jamoa bo'lib ishlash, alohida Guruhlarda ishlash
O'quv sharoitlari	Auditoriya, Guruhlar bilan ishlash uchun sharoitlar

### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi


Bosqichlar vaqt	Faoliyat	
	O'qituvchilar	Talabalar
I bosqich Mashg'ulotga kirish (5 daqiqa)	1.1. Mavzu nomi, maqsadlari, kutiladigan natijalar, o'tkazish rejalari, xos xususiyatlari e'lon qilinadi	1.1. Tinglaydilar, yozib boradilar
II bosqich Bilimning dolzarbligini ko'rsatish (15 daqiqa.)	"Mo'g'ul bosqinchilariga nisbatan past rivojlanish sharoitida bo'lib qmsqa muddatda qudratli xorazmshohlar davlatini bosib oldi."- degan savolni beradi, blits so'rov o'tkazadi. Bir nechta javoblarni eshitadi. Har bir talabaga ushbu savolga javobni "Nima uchun " grafik organayzer ko'rinishida ko'rinishida yozish vazifasini topshiradi uni tuzish qoidasini tushuntiradi (1- liova ) , To'ldirilgan jadvallarni yig'ib oladi. O'quv avzifalarini guruhda bajarilgandan so'ng Bahs o'tkazilishini e'lon qiladi. Uning qoidalarini va guruhda ishlashni eslatib o'tadi.	2.1. Savollar javob beradilar.  "Nima uchun" jadvalini tuzishadi va ishni topshiradilar Tinglaydilar, savol beradilar.
III bosqich Guruhlar va juftliklar bilan ishlash (10)	3.1. Talabalarni ikki Guruhga bo'lib, ularni orasidan Guruh uchun ekspert belgilaydi. Savollar va vazifalar ro'yxatini tarqatadi (ekranda	3.1. Vazifalar, ish tartibi, ko'rsatkichlar va baholar darajasi bilan tanishadilar

daqiqa)	ko'rsatiladi), Bahs qoidalarini tushuntiradi, (2-ilova), ekspert Guruhining vazifasini aytadi, ko'rsatkichlarni va baholar darajalarini belgilaydi (3-4 ilovalar) 3.2. Guruhlarda ish boshlanganini e'lon qiladi. Zarurat bo'lganda maslahatlar berib turadi	3.2. Guruhdoshlar o'zaro bo'lib olib vazifani bajaradilar, prezentatsiya varag'ini ham to'ldiradilar
IV bosqich Ikki tomonlama Bahs (55 daqiqa)	4.1. Jamoa bo'lib muhokama qilishni va guruhlardagi ish natijalarini baholashni tashkil qiladi. To'rt tomonlama Bahs jarayonidagi umumlashtirish va xulosalarga aloxida e'tibor beradi, ularga izox beradi.	4.1. Guruh ishini taqdimotini o'tkazishadi, ekspertning muammoli savollariga javob beradilar. Ekspert guruh ishiga baho beradi.
V bosqich yakuniy qism (5 daqiqa)	5.1. Ishga yakun yasaydi va baholaydi 5.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi (5- ilova)	5.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

1-ilova (8.2.)

### “Nima uchun”? texnikasi

Bu uslub muammoni eng so'nggi sabablarini aniqlashni o'ylash uchun butun boshli zanjir texnikasi bo'lib, siz muammoni nomini tuzishdan boshlaysiz. So'ng “Nima uchun” savoli bilan moslama (strelka) chiziladi va miyaga kelgan so'z bilan savolga javob yozasiz. Bu jarayon to muammoning yakuniy sabablarini topgunga qadar davom etishi mumkin.



va hokazo qoidasi:

- Shakllarni o'zingiz tanlab olasiz: dumaloqli yoki to'g'ri burchaklimi?
- O'ylash zanjiri jadvali ko'rinishini o'zingiz tanlab olasiz: Spiral, chizikli, chiziqsiz.
- Strelka sizning qidiruv yo'nalishingizni bildiradi, boshlanishdan o'ylash oxiriga etguncha.

2-ilova (6.2.)

### **To'rt tomonlama Bahs muhokamasi uchun savollar ro'yxati:**

1. O'rta Osiyoga bostirib kelgunga qadar Chingizxon va mo'g'ul davlati haqida sizga qaysi ma'lumotlar ma'lum edi?
2. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlatining zaiflashuvi sabablari nimada edi?
3. Chingizxonning O'rta Osiyoni bosib olish rejasida "O'tror fojiasi" qanday rol o'ynaydi?
4. Mo'g'ul istilosiga qarshi mudofaa rejasini tuzishda Muhammad Xorazmshoh xato taktikasi qanday oqibatlarga olib keldi? Nega u bu yo'lni tanladi?
5. Mo'g'ul zarbalari ostida Xorazmshohlar davlatining qulashiga nimalar sabab bo'ldi? Bu qanday ro'y berdi?
6. Mo'g'ul istilosiga qarshi O'rta Osiyo xalqlarining olib borgan kurashida qaysi yorqin qaxramonona ibratni bilasiz.
7. Mo'g'ul hukmronligi o'rnatilgandan so'ng Movarounnahrni boshqarishning qanday xususiyatlari bor edi.
8. Mo'g'ul istilosidan so'ng Movarounnahrda xo'jalik hayoti qanday kechdi?
9. Mo'g'ullarga qarshi Mahmud Torobiy qo'zg'olonining sabablari, uning borishi va oqibatlari qanday bo'ldi?
10. Kebekxon tomonidan qanday islohotlar o'tkazildi va uning maqsadlari nima edi?
11. XIV asr II yarmida Movarounnaxrda qanday siyosiy holat yuzaga keldi?
12. Mo'g'ul istilosining O'rta Osiyo xalqlari uchun qanday oqibatlari bo'ldi?

### **O'quv vazifasi**

- "Mo'g'ul zulmi xalqning aynan qalbini yaralagan edi" mavzusida qisqagina aniq fikrlardan iborat esse yozish kerak.

3-ilova (8.2.)

### **Ikka tomonlama bahs usulini o'tkazish tartiblari.**

1. Guruh ikki qismga bo'linadi va bir biriga qarama-qarshi joylashadi.
2. Muhokama qilinishi kerak bo'lgan savollar har ikki Guruhga teng bo'lib beriladi (bir Guruhga juft, ikkinchi Guruhga toq nomerli).
3. O'quv vazifasini har ikki Guruh bajaradi
4. Guruhlar savollarga umumiy javob tayyorlaydilar (juft holda, jamoa holda) taqdimot varaqalarini o'quv vazifasini tayyorlaydilar.
5. Guruhlar a'zolari bir-biriga savollar beradilar, javob beradilar, to'ldiradilar, aniqlik kiritadilar, xatolarni tuzatadilar, o'zlarining esse yozgan variantlarini taqdim etadilar.
6. Ekspertlar bu jarayonni kuzatib borib har bir Guruhga muammoli savol beradilar, Guruhlar ishiga baho beradilar.

**Eslatma:** Bahsda o'rtaga tashlangan savollar talabalarga avvaldan berib qo'yilishi mumkin (avvalgi amaliy mashg'ulotda). Ijodiy vazifalar ushbu mashg'ulotni o'zida talabalarga e'lon qilinadi.

4-ilova (6.2.)

### **Natijalar baholari varag'i**

Savol va Guruh nomerlari	Ma'noli javob	O'zgalarga savol berish	To'ldirilishi	Ko'rgazmaliligi	Ballar yig'indisi
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7 va hokazo					

### **Ijodiy o'quv vazifasi ko'rsatkichlari va baholar darajasi (esse)**

Guruh	Mavzuga kirish	Aniqlik va isbotlilik	Tiniq, tushunarli bayon etish	O'ziga xos yangilik asosida fikrlash	Ballar yig'indisi
	( )	( )	( )	( )	
1					
2					

### **Mustaqil ishlash uchun vazifalar.**

1. “Nima uchun” grafik organayzerni to’ldirish
2. Guruhda ishlash uchun o’quv vazifasini bajarish va taqdim etish
3. Test vazifalarini bajarish mavzusi bo’yicha materiallarni o’zlashtirilganligi haqida o’z-o’zini tekshirish o’tkazish.
4. I.Mo’minovning “O’rta Osiyo tarixida Amir Temurning tutgan o’rni” risolasini o’qib chiqish. (T. “Fan”. 1968, 8-mavzu ma’ruzaga tayyorlanish uchun)

### **Mavzu bo’yicha maba va adabiyotlar:**

1. Abulg’oziy. Shajarai turk. Toshkent, “Cho’lpon”, 1992.
2. Jaloliddin Manguberdi. Toshkent, “Sharq”, 1999.
3. Ulug’bek Mirzo. To’rt ulus tarixi. Toshkent, “Cho’lpon”, 1994.
4. Shihobiddin Muhammad an-Nasafiy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. Toshkent, “O’zbekiton”—“Yozuvchi”, 1999.
5. Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). Toshkent, G’. G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashr., 1998.
6. Буниёдов З. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231). Москва, “Наука”, 1986.
7. Bo’riev O., Toshev N. Jaloliddin Manguberdi. Toshkent, “Fan”, 1999.
8. Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. Toshkent, “SHarq”, 1999.
9. Masharipov O. Ajdodlar fojiasi. Urganch, “Xorazm”, 2003.
10. Saburova S. Anushtagin—Xorazmshohlar davrida Xorazm (1097-1231). Toshkent, 2008.
11. Saidov Sh. Xorazmshoh-Anushtakinlar davlatining yuksalishi va halokati. Toshkent, 2008.

## Markaziy Osiyo mo'g'illar hukmronligi davrida



Temuchin (1155-1227) XII asrning oxirlariga kelib quyidagi xalqlarni, bo'ysundirib, kuchli davlatga asos soldi.

Mo'g'ullarning ko'p sonli urug'- qabilalarini  
va

jaloirlar,

oyratlar,

qaraitlar,

naymanlar,

Turkiy qabilalarni



qoraxitoylar

qirg'izlar,

uyg'urlar,

qarluqlar



### **“Yasoq” qonunlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:**

1. Hukmdor (xon) “Yasoq”ga qat’iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilish, amal qilmagudek bo‘lsa xonni umrbod qamash mumkin bo‘lgan.
2. Chingizxon mo‘g‘ullar orasida diniy adovat kelib chiqmasligi uchun barchaga to‘la diniy erkinlik bergan. Ruhoniylar soliqdan ozod etilgan.
3. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo‘lganliklari uchun ham, urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim bo‘lgan.
4. Jazolash darajasi sifatida o‘lim jazosini eng ko‘p miqdorda qo‘llash;
5. Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga butkul rahm-shafqat qilmaslik

## **Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Xorazmshohlar davlati**

- \* XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlati Sharqning eng qudratli saltanatlaridan biriga aylangan, biroq ichki nizolar bu davlatni ichdan zil ketishiga sabab bo‘layotgan edi;
- \* Muhammad Xorazmshoh va uning onasi Turkon xotun o‘rtasida ziddiyatlar mavjud bo‘lib, saroy ahli ikkita bir-biriga qarama-qarshi guruhga ajralgan edi;
- \* Muhammad Xorazmshoh o‘zining yon atrofdagi (G‘ur, Xuroson, Movarounnahr, Mozandaron, Ozarbayjon va boshqalar) uncha kuchli bo‘lmagan yerlarni o‘z qo‘li ostida birlashtirib, o‘z g‘alabalariga juda berilib ketgan edi;
- \* Qoraxitoylar ustidan qozonilgan g‘alabadan (1210) so‘ng, u o‘zini mutloq engilmas («Iskandariy Soniy», «Sulton Sanjar», «Ollohning yerdagi soyasi» va boshqa unvonlarga ega) deb hisoblab, islom olamiga egaligini ham da‘vo qila boshladi;
- \* O‘z navbatida bu qo‘shin vatan mudofaasi uchun emas, balki ko‘proq istilo, talon-taroj, o‘lja olish uchun mo‘ljallangan qo‘shin edi;
- \* Xorazmshohlar har tomonlama buyuk davlat edi. Lekin unda aniq bir tartib, soliqlar to‘plashda ham aniq bir tizim yo‘q edi. Hokimlar o‘z bilganlaricha ish tutar edi;
- \* Markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi mustahkam asoslarga ega emas edi.



Islom Karimov: “Bu yurt tengsiz allomalar, aziz-avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko’p ko’rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberding betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi.”

(I.Karimov, asarlar, T. 8, 75-betlar)

Sarkarda yubileyi munosabati bilan Urganchda Jaloliddin Manguberdiga bag’ishlab me’moriy majmua va bog’ tashkil qilindi.

Bahodir, sarkarda, davlat arbobi Jaloliddin Manguberdi qiyofasiga chizgilar

1999 yil noyabrda Jaloliddin tavalludining 800-yiliginii nishonlab, O’zbekiston hukumati 2000-yilda “Jaloliddin Manguberdi” ordenini ta’ sis qildi.

Shahobiddin An-Nasafiy: U bug’doyrang, o’rta bo’ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, “... u sherlar orasida eng zo’r sher edi, qo’rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U haqgo’ylikni, adolatni ulug’lardii...”

Chingizxon: “Otdan dunyoda hali bunday o’g’il tug’ilmagan. U sahroda sher kabi g’olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir.. “Otaga shunday o’g’il zarurki, u ikki girdob – olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oladi!” (Mirzo Ulug’bek. To’rt ulus tarixi.)  
T.: “Cho’lpon”, 1994, 183-184- betlar

### Chig’toy ulusi hukmdorlari:

**Chig’atoy**

**Noib Mahmud  
Yalavoch  
vafoti 1289**

**Duvaxon  
1282-1306**

**Noib  
Mas’udbek  
1238-1289**

**Tarmashirin  
1326 - 1334**

**Kebekxon  
1318 -  
1326**

**Changshi  
1334**

**Bo’zan 1334-  
1338**

**Eson-  
Temur  
1338-1342**

**Muhammad  
1342-1343**

## Mavzu yuzasidan quyidagicha test savollari tuzish mumkin:

### *Muhammad Xorazmshoh davlatining ichki ahvoli qanday edi?*

- a) Ikki hokimiyatchilik, mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik hukm surardi, hukmdor man-manlikka berilgan edi;
- b) Amaldorlar oz bilganicha ish tutardi va xalqning ko'p hollarda noroziligiga sabab bolardi;
- c) Ichki ahvol juda yaxshi edi.
- d) Ikki hokimiyatchilik, mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik hukm surardi, hukmdor man-manlikka berilgan edi; amaldorlar oz bilganicha ish tutardi va xalqning ko'p hollarda noroziligiga sabab bolardi;

### *Movarounnahr shaharlari qanday mudofaa qilindi?*

- a) Uyushqoqlik bilan tashkil etildi;
- b) Yaxshi tashkil etilmadi;
- c) Umuman mudofaa qilinmadi;
- d) Qo'shinni bir joyga to'plab hal qiluvchi zarba berildi.

### *Jaloliddin Manguberdi yubileyi yurtimizda qachon nishonlandi?*

- a) 2001 yil noyabrda;
- b) 1999yil noyabrda;
- c) 1991 yil yanvarda;
- d) 2000 yil dekabrda

### *Mahmud Torobiy qo'zg'oloni qachon boshlandi?*

- a) 1236 yilda;
- b) 1238 yilda;
- c) 1256 yilda;
- d) 1283yilda

## GLOSSARIY

**barot** – ijaraga olish; soliqlar mahalliy xonlar tomonidan barot tartibida avvaldan to'planib, aholidan yig'ib olish paytlarida ular shubhasiz rasmiylashtirilgan miqdordan oshirib undirilgan.

**bosqoq** – mo'g'ullar hukmronlik qilgan XIII – XIV asrlarda mahalliy hokim

**dinor** – bir misqol (4,8 gr) og'irlikda so'qilgan oltin yoki kumush tanga.

**dirham** – mayda kumush tanga.

**yom** – savdo yo'llarida joylashgan bekat; ularning xizmati va xarajati ham aholiga yuklatilgan edi.

**iqto** – yirik mansabdorga hadya etilgan er va mulk.

**iqtodor** – barcha soliq va to'lovlardan ozod etilgan yirik mansabdor, harbiy ma'mur

**kadivar** – yirik zamindor va ularning xo`jaliklariga qaram bo`lib qolgan dehqon.

**kalon** - XIII asrdagi er solig`i; hosilning 1/10 qismi hajmida

**keshik** - XIII asrda mo`g`ullar qo`shinidagi zaxira qism; maxsus gvardiya

**muzoriy** – ziroatkor dehqon, polizkor

**mulki devon** – davlat erlari

**mulki inju-xon** – noiblar va ularning avlodlari tasarrufidagi erlar

**mulki vaqf** - machit, madrasa, xonaqoh va maqbaralar ixtiyoridagi erlar.

**mulklar** – xususiy erlar

**no`yon** – bir tuman (10 ming) qo`shin qo`mondoni. Qadimgi turk va mo`g`ul qo`shinlarida shahzoda va sultonlar no`yon deb atalgan. XIV- XVI asrlarda eng nufuzli amirlargina no`yon bo`lgan.

**Oltin O`rda** – tarixiy manbalarda Jo`chi ulusi deb ham yuritiladi. XSH asrning 40-yillarida CHingizxonning nabirasi Jo`chixonning o`g`li Botuxon (1208-1255 yy.) tomonidan bosib olingan SHarqiy Evropa Jo`chi ulusiga qo`shilgach, tashkil topgan davlat Oltin O`rda deb atalgan.

**payza** - yorliq

**suyurg`ol** – oliy tabaqa zodagonlarga in`om qilingan er-mulk

**tuman** – 1) o`n ming degan ma`noni anglatadi. O`n ming aholisi bo`lgan yoki o`n ming kishilik qo`shin etkazib berishga qodir bo`lgan okrug. SHuningdek, o`n ming otliqdan tashkil topgan qo`shin ham tuman deb atalgan; 2) Oktyabr inqilobiga qadar O`rta Osiyoda ma`muriy-hududiy bo`linish; uezd.

**ulus** – tor ma`noda ma`lum bir urug`, qabila yashab turgan sarhadni ifodalagan; kengroq ma`noda esa xon va uning oila a`zolariga tegishli erlar va ularga bo`ysunuvchi hamda shu erda istiqomat qiladigan aholini qamrab olgan ma`lum bir sarhad tushunilgan.

**xoqon yoki qog`on** - hukmdor, podsho

**xoqon** – turk, xitoy, mo`g`ul hukmdorlari unvoni.

**xon** – turkiy xalqlar va mo`g`ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig`i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan.

**Xo`jand** – hozirgi Tojikiston Respublikasidagi davlat.

**chig`atoy ulusi** – CHingizxon tomonidan CHig`atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlarning umumiy nomi (1224 yildan boshlab). Hududi Movarounnahr, Ettisuv va Qashqardan iborat bo`lgan.

**chig`atoylar** - CHig`atoy ulusini idora etgan sulola (1224-1370 yy.). CHingizxonning ikkinchi o`g`li CHig`atoy (1242 yil vafot etgan) nomidan kelib chiqqan.

**shulen** – XIII asrda olingan oziq-ovqat solig`i; har bir podadan ikki yashar qo`y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan.

**yaso (YOsoq)** – CHingizxon zamonida joriy etilgan qonun-qoida. Fuqarolar yasoga, ya`ni qonun-qoidalarga qanday amal qilayotganini nazorat qilib turuvchi kichik mansabdor yasovul deb aytilgan.

**yasovul** – o`rta asrlarda Mo`g`uliston, O`rta Osiyoda podshoh yoki xon saroyidagi kichik mansabdor. Oliy hukmdorning amru-farmoyishlarini bajaruvchi shaxsiy xizmatkori.

**O`tror** – Sirdaryoning o`ng sohilida, Aris daryosi bo`yida joylashgan yirik o`rta asr shahri.

**qopchur** – mo`g`ullar davrida chorvadan olinadigan soliq; 100 bosh chorvadan 1 bosh olingan.

**G`azna** – Afg`onistonning yirik shaharlaridan. Qobulning janubida, Hindistonga olib boradigan karvon yo`li ustida joylashgan.

### **O`zbekiston tarixi faniga oid saytlar:**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - O`zbekiston Respublikasi O`zbekiston Respublikasi oily va o`rta maxsus ta`limi vazirligining barcha mavzudagi ma`lumotlar electron bazasi.

[www.literature.uz](http://www.literature.uz) - adabiyot sayti.

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz) – pedagogika mavzusidagi sayt.

[uzbekistan.uzpak.uz](http://uzbekistan.uzpak.uz). – O`zbekiston tarixining “Buyuk ipak yo`li” davridan mustaqillik yillarigacha bo`lgan davri haqidagi sayt.

[www.natlib.uz /turk/](http://www.natlib.uz/turk/) - Turkestanskiy sbornik.

[history.uzsci.net](http://history.uzsci.net) - Tarix institutining “O`zbekiston tarixi” nomli jurnali.

[ula.uzsci.net](http://ula.uzsci.net) – Jurnal: Nauka i obrazovaniye Uzbekistana.

[www.xonatlas.uz](http://www.xonatlas.uz) – O`zbekiston madaniyati to`g`risidagi sayt.

**N.NURMATOVA**

**MO'G'ULLAR ISTILOSI VA  
ZULMIGA QARSHI KURASH.  
JALOLIDDIN MANGUBERDI –  
VATAN HIMOYACHISI**



